

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI
ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI**

**5A11201-O‘zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligi 2 kurs magistranti Shodmonov G‘iyosiddin
Nafasovichning “Porso Shamsiyev – adabiyotshunos va matnshunos”
mavzusidagi**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:
_____Sh.Nuriddinov
Qarshi DU Adabiyotshunoslik
kafedrasi katta o`qituvchisi, f.f.n.

QARSHI -2015

Mundarija

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.....	4
Birinchi bob. Porso Shamsiyevning matnshunoslik faoliyati.....	7
1.1. Porso Shamsiyev ilmiy biografiyasi xususida.....	7-13
1.2. Porso Shamsiyev faoliyatining o‘zbek matnshunosligi taraqqiyotida tutgan o‘rni.....	13-26
Ikkinchi bob. “Sab’ ai sayyor” dostoni tanqidiy matnini yaratishda asos bo‘lgan manbalar tahlili.....	26
2.1. “Sab’ ai sayyor” dostonining qo‘lyozma va toshbosma manbalari.....	26
2.2. Doston tanqidiy matni tavsifi va nashrlari ning qiyosiy tahlili.....	28
Uchinchi bob. “Farhod va Shirin” dostoni tanqidiy matnini yaratishda asos bo‘lgan manbalar tahlili	52
3.1. “Farhod va Shirin” dostonining qo‘lyozma va toshbosma manbalari	52
3.2. Doston tanqidiy matni tavsifi va nashrlari ning qiyosiy tahlili.....	53
Umumiy xulosalar.....	72
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.	74
Lug‘atlar.	

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar adabiyotshunoslik sohasi oldiga ham hal etilishi zarur bo'lgan jiddiy masalalarni qo'ydi. Shulardan biri – o'tmish madaniy merosini jiddiy o'rganish, ularning yangi nashrlarini chop etish va ma'naviyatni boyitadigan, ma'rifiy g'oyalari kuchli bo'lgan asarlarni targ'ib etishdir. Zero, yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "...har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma'naviy qarashlari o'z-o'zidan, bo'sh joyda shakllanib qolmaydi"¹.

O'tgan asrning 50-60 yillarida buyuk so'z san'atkori bo'lmish Alisher Navoiy asarlarini tadqiq qilish va ularni nashr ettirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Bu jarayonda matnshunos olimlarimizning mehnatlari juda katta ekanini ta'kidlab o'tish o'rinli. Mustaqillik yillariga kelib, ana shunday olimlarning hayoti va ijodi, ularning soha ravnaqiga qo'shgan ulkan hissalar, qolaversa, yaratgan asarlarini tahlil va tadqiq qilish, ularni keng jamoatchilikka yetkazish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Mana shunday buyuk olimlarimizdan biri O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori Porso Shamsiyev ham matnshunos sifatida Navoiy asarlari ustida ko'plab ishlarni amalga oshirdi.

Mazkur dissertatsiya mumtoz merosimiz, xususan, Alisher Navoiy asarlari tanqidiy matnini yaratgan va ularning chop etilishida katta xizmat ko'rsatgan Porso Shamsievning matnshunoslik va manbashunoslik sohasida olib borgan ishlarini o'rganishga bag'ishlanganligi bilan dolzarbdir. Chunki aynan mana shu tanqidiy matn keyingi yillari yaratilayotgan ko'plab nashrlarga asos bo'ldi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek adabiyotining yetuk manbashunoslaridan biri bo'lgan Porso Shamsiyevning hayoti va ilmiy faoliyati yuzasidan deyarli ish olib borilmagan. Biroq, Alisher Navoiyning "Xamsa" asari ko'plab matnshunos olimlarimiz tomonidan tadqiq qilingan. Abdurauf Fitrat, E. E. Bertels, O. Sharafiddinov, S. Ayniy, A.Sa'diy, Oybek, M. Shayxzoda, H. Sulaymon, V. Zohidov, I.Sulton, V. Abdullayev, N. Mallayev, E. Rustamov, A. Sayumov, A.

¹Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.–Toshkent, 2008,7-bet.

Hayitmetov, A. Rustamov, B. Valixo‘jayev, S. G‘aniyeva, S. Hasanov kabi olimlar mehnatlari samaralarisiz navoiyshunoslikni tasavvur etib bo‘lmaydi.

Yurtimiz istiqlolga erishgach, ma‘naviy qadriyatlarimizni asrash, ularni nashr qilish, keng targ‘ib etish, ta‘lim-tarbiya jarayoni turli bosqichlariga tadbiq qilish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Matnshunoslik sohasida professorlar H.Homidiy, N.Jabborov, filologiya fanlari nomzodlari O.Jo‘raboyev, J.Mahmudov va boshqalarning mehnatini e‘tirof etish mumkin. Shunday bo‘lsa-da, matnshunoslik sohasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar talaygina.

Dissertatsiyaning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi: Dissertatsiya Qarshi davlat universiteti “O‘zbek filologiyasi” fakultetida “Adabiyotshunoslik” kafedrasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar sirasiga kiradi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti: “Sab‘ai sayyor”, “Farhod va Shirin” dostonlarining ilmiy-tanqidiy matni va unga asos bo‘lgan qo‘lyozma nusxalar. Ikkala dostonning nashrlari. Porso Shamsiyevning hayoti va faoliyati borasidagi tadqiqotlar.

Porso Shamsievning ilmiy faoliyati haqida ma‘lumotlarni aniqlash, olim yaratgan “Sab‘ai sayyor” va “Farhod va Shirin” dostoni tanqidiy matnlarini asos bo‘lgan nusxalar yordamida tekshirish va bugungi mavjud nashrlarning yutuq va kamchiliklarini aniqlash predmeti sifatida belgilandi.

Tadqiqotning maqsadi: Porso Shamsiyevning hayoti va ilmiy faoliyatini o‘rganish va matnshunoslik sohasidagi mavjud muammolarni aniqlash, ba‘zi kamchiliklarni bartaraf etish taklifini kiritish. Buning uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi:

- Porso Shamsiyevning ilmiy faoliyatini o‘rganib chiqish;
- olimning matnshunoslik taraqqiyotida tutgan o‘rnini belgilash;
- “Sab‘ai sayyor” va “Farhod va Shirin” dostonlarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalarini qiyosiy o‘rganish;
- dostonning nashrlarini tavsif qilish;
- nasrlardagi kamchiliklarning sabablarini aniqlash va keyingi nashrlarda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritish;

Tadqiqot metodlari. Dissertatsiyada asosan tarixiy-qiyosiy metoddan foydalanildi.

Tadqiqotning tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va mavzuga oid tayanch so'zlarning o'zbekcha-inglizcha lug'atidan iborat.

BIRINCHI BOB. Porso Shamsiyevning matnshunoslik faoliyati

1.1. Porso Shamsiyev ilmiy biografiyasi xususida.

Respublikamizdagi matnshunoslik ravnaqini O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori Porsoxon Shamsiyevning salmoqdor xizmatlarisiz tasavvur etish mushkul. Olim navoiyshunos sifatida buyuk shoir asarlari yuzasidan bir qancha ishlarni amalga oshirdi.

Porso Shamsiyev 1897-yil 10-fevralda Buxorodagi Xoja Porso mahallasida tavallud topdi. U avval oson usuldagi maktabda, so‘ngra madrasada tahsil ko‘rdi. Porso Shamsiyev mehnat faoliyatini o‘zi tug‘ilib o‘sgan joy – Buxoroda amirlik davridayoq ilm-ma‘rifatni egallashga da‘vat etuvchi maqolalari bilan boshlagan edi. U devonda yozuv-chizuv ishlari bilan shug‘ullanar, yoshlarni xat o‘rganish, ma‘rifatli bo‘lishga da‘vat etar edi.

1925 yili Porso Shamsiyev Toshkentga keladi va xalq maorifi sistemasida ishlay boshlaydi. Bu sohada dastlabki vazifa og‘ir bo‘lib, savodsizlikni tugatishga qarshi ommaviy safarbarlikni uyushtirish kerak edi. “Biz endi kultpoxod shtabining qo‘mondonlaridan biri bo‘lib qoldik, – deb yozadi P. Shamsiyev, – studentlar armiyasini qurollantirish kerak, bularga yo‘l-yo‘riq, qo‘llanmalar berish lozim, ta‘lim tarbiya metodlarini o‘rgatish kerak, mahallalarda, hatto, xonadonlarda mayda-mayda kurslar tashkil qilish kerak. Mana bu ishlarni komanda sostavidagi boshqa ajoyib jonkuyar, xormas-tolmas o‘rtoqlar bilan birgalikda bajara bordik. ...Qarangki, bir yil degandayoq ko‘pchilikning zo‘rg‘ayrati bilan shahar aholisi yoppasiga savodxon bo‘ldi-qo‘ydi”².

30-yillarda nashr etilib, bir qancha vaqt maktablarda darslik sifatida qo‘llanma bo‘lib kelgan “Adabiyotdan ish kitobi”, “Adabiyot darsligi”, “O‘zbek tili darsligi”, birinchi va ikkinchi “O‘qish kitobi” kabilar Porso Shamsiyevning yuqorida aytilgan samimiy so‘zlari va faoliyatining amaldagi isboti edi.

Olim XX asrning 30-yillariga qadar madrasa, maktab va maorif yo‘nalishidagi muassasalarda xizmat qiladi. So‘ngra 1931–1936 yillari

² Ushbu gaplar P. Shamsiyevning 1967-yil noyabr bayrami munosabati bilan o‘tkazilgan institut yig‘ilishida qilgan dokladidan olindi. – T. G‘., S. G‘.

O‘zbekiston davlat nashriyoti, O‘quv pedagogika nashriyoti (1936–40), O‘z FAN nashriyotida muharrir (1941–45), Til va adabiyot institutida katta ilmiy xodim (1945–72) lavozimlarida faoliyat yuritdi.

Porso Shamsiyev qator olimu shoirlar bilan bir safda turib ko‘plab ishlarni amalga oshirdi. U Sadriddin Ayniy, G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Boqiy domla, Xodi Zarif, Anisiy, Mu‘inzoda, Charxiy kabi olim, fozil va shoirlarning do‘sti va hamkori edi. Ko‘pincha, ular bilan bo‘lib o‘tgan bahsu suhbatlarni maroqlanib so‘zlab yurgan. Ustoz mehnatni juda sevadigan va qadrlaydigan kishi edi. Toliqmay mehnat qilishni ham, shu mehnatning rohatini totishni, uning zavqini – gashtini surishni ham bilardi. Davralarda joy tanlamas, aksar yoshlar orasida bo‘lishni hush ko‘rar, nihoyatda samimiy, muruvvatli va mehribon inson edi. Doim barchaga yordam berishga tayyor, xususan, yoshlardan foydali ko‘mak va qimmatli maslahatlarini ayamaydigan kishi sifatida shogirdlar xotirasida muhrlanib qoldi.

Olimning shu kabi ajoyib hislatlaridan yana biri qilayotgan har bir ishiga erinmasdan jiddiy e‘tibor qaratishidir. Ustozning eng yaqin shogirdlaridan biri navoiyshunos olim Suiyima G‘aniyeva shunday xotirlaydi: “Ustoz bilan birga mehnat qilgan paytlarimiz bir narsadan hayratlanardim. Domla o‘zi juda yaxshi biladigan so‘zlarni ham lug‘atdan bir qarab olardi:

– Lug‘at ko‘rish yaxshi odatga aylanishi kerak. Kutilmagan bir so‘zning ma‘lum bo‘lmagan bir qirrasini bilib olasiz, bilganingiz esa xotiraga naqshlanib boraveradi, – deb aytardi . Yana bir kuni olim ustozining oldiga “rind” so‘zining lug‘aviy ma‘nosini bilish maqsadida ko‘mak so‘rab keladi: “O‘zimdagi lug‘atlar qoniqtirmadi chog‘i, ertasiga ustozga murojaat qildim. Anchagina tushuntirgach, qo‘liga lug‘at olib varaqladi. U yerda “rind – shariat qoidalarini johillik yuzasidan emas, balki ongli suratda inkor qiluvchi ziyrak, xushyor, ozod fikrli odam”, deb izohlangan ekan... Ustoz o‘shanda chiroyli tabassum bilan:

– E-ha, shunaqa ekan-da! – degan edi”³.

³ S. G‘aniyeva “Guhar cho‘msa daryog‘a...” Jannatmakon jurnali. Fevral, 2008. 51-b.

Ustozda shukronalik hissi g'oyat kuchli edi. O'z hayotidan, turmushidan, qilgan ishlaridan, do'stlari va hamkorlari bilan diydorlashuvidan doim shukrona qilardi. Suyima G'aniyevaning ta'kidlashicha, u kishi doim Sadiyning bir baytini takrorlashni xush ko'rar ekan:

*Yak gule maqsud dar in bo'ston,
Chiyda nashud bemadadi do'ston.*

Ya'ni: bu bo'stonda birorta maqsad gulini do'stlarning madadisiz uzib bo'lmaydi. Porsoxon domla o'z kasbini juda sevar, qandaydir ibratnok huzur bilan rohatlanib ishlardi. O'zining unumli, fayzli hayoti davomida kitobdan ayrilmadi desak, xato bo'lmaydi.

30-yillarning oxiridan boshlab hukumatning ko'rsatmasiga binoan. Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyini o'tkazish maqsadida shoir hayoti va ijodini o'rganish, uni keng xalq ommasiga yetkazish uchun ommaviy nashr ishlari jadal sur'ata amalga oshirila boshlandi.

Tashkiliy ishlarga shoir Hamid Olimjon rahbarlik qilardi. Respublikadagi yetuk ilmiy kuchlar, klassik adabiyot bilimdonlari bu qutlug' va mas'uliyatli ishga jalb qilinadilar. Hamid Olimjon Porsoxon Shamsiyevni ham ilm dargohiga olib kiradi. Ustod Sadridin Ayniy, Boqiy (A. Nasriddinov), Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Uyg'un, Amin Umariy, Xodi Zarif kabi olim va shoirlar jamoasi buyuk alloma Alisher Navoiy merosini to'plash, o'rganish va ayrim asarlarini ommaviy nashrga tayyorlashga qizg'in kirishib ketadilar. Bu jarayonda Porso Shamsiyev birinchi marta Navoiyning "Muhokamat ul lug'atayn", keyinroq "Mahbub ul qulub", "Majolis un nafois", "Munshoat", "Vaqqfiya", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" kabi ilmiy-nasriy asarlarini va "Xamsa" tarkibidagi beshinchi doston "Saddi iskandariy" kabi asarlarini nashr ettiradi. Porsoxon Shamsievning ilmi biografiyasi mazmunini yaratgan darsliki va xrestomatiyalar, ilmiy-ommaviy nashrlar, ilmiy-tanqidiy matnlar va maqolalar tashkil etadi. Quyida ularning ro'yxatini keltiramiz:

I. Xrestomatiya va darsliklar.

1. Adabiyot xrestomatiyasi (o‘zbek maktablari uchun, hammuallif.). – Toshkent, 1932.
2. O‘zbek adabiyoti materiallari (O‘rta maktablar uchun qo‘llanma, hammuallif.). –Toshkent, 1933.
3. O‘zbek adabiyoti darsligi (o‘smirlar maktabi uchun, hammuallif.). – Toshkent, 1934.
4. Adabiyot xrestomatiyasi (o‘rta maktablarning 7-sinfi uchun, hammuallif.). –Toshkent, 1935–37.
5. Qisqacha ruscha-o‘zbekcha lug‘at (o‘zbek maktablari 5-6 sinfi uchun, hammuallif). —Toshkent, 1936.
6. Qisqacha ruscha-o‘zbekcha lug‘at (o‘zbek maktablarining 7-sinfi uchun, hammuallif). –Toshkent, 1936.
7. Birinchi o‘qish kitobi (savod chiqarish maktabi uchun, hammuallif). –Toshkent,
8. Ikkinchi o‘qish kitobi (kattalar uchun, soavt.). –Toshkent, 1938.
9. O‘zbek tili darsligi (kattalar uchun, soavt.) –Toshkent, 1938-39.
10. O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi (Oliy o‘quv yurtlari uchun, hammuallif). –Toshkent, 1939.

II. Ilmiy-ommaviy nashrlar, ilmiy-tanqidiy matnlar va maqolalar.

1. Alisher Navoiy. “Muhokamat ul-lug‘atayn”. –Toshkent, 1940.
2. Alisher Navoiy. “San’ai sayor”. –Toshkent, 1948.
3. Alisher Navoiy. “Majolis un-nafois”. III jild. –Toshkent, 1948.
4. Alisher Navoiy. “Muhokamat ul-lug‘atayn”. II qism. –Toshkent, 1948.
5. Bobir. “Bobirnoma”. I qism. –Toshkent, 1948.
6. Bobir. “Bobirnoma”. II qism. –Toshkent, 1948.
7. Xondamir. “Makorim ul-axloq” (tarjima). –Toshkent, 1948.
8. Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy”. – Toshkent, 1950.
9. “Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostoninig ilmiy-tanqidiy matni va uni tuzish prinsiplari”. (AKD). – Toshkent, 1952.

10. Gʻafur Gʻulom. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1953.
11. Lutfiy. Lirik. – Toshkent, 1953.
12. Gʻafur Gʻulom. Tanlangan asarlar. 1-jild, – Toshkent, 1953.
13. Alisher Navoiy. “Sabʻai sayyor” (ilmiy-tanqidiy matn).– Toshkent, 1956.
14. Gʻafur Gʻulom. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent, 1957.
15. Gʻafur Gʻulom. Tanlangan asarlar. 3-jild. – Toshkent, 1957.
16. Alisher Navoiy. “Xamsa”. – Toshkent, 1958.
17. Oʻzbek adabiyoti (4 jildlik). 2-jild (Alisher Navoiy asarlari). – Toshkent, 1959.
18. Buyuk adabiy manifest (O. Usmonov bilan soavt.). “Sovet Oʻzbekistoni”, 1959, dekabr.
19. Alisher Navoiy. “Xamsa”. – Toshkent, 1960.
20. “Xamsa” nashri haqida”. Navoiy “Xamsa”siga soʻzboshi. – Toshkent, 1960.
21. Bobir. “Bobirnoma”. – Toshkent, 1960.
22. Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin” (ilmiy-tanqidiy matn). – Toshkent, 1963.
23. “Doston teksti va uni nashr etish prinsipi haqida”. Alisher Navoiy, “Farhod va Shirin” (ilmiy tanqidiy matniga yozilgan soʻzboshi). – Toshkent, 1963.
24. “Ikki buyuk allomaning doʻstligi”. “Fan va turmush” jurnali, 1964, 11-son, 22-24 betlar.
25. “Tarjima haqida tadqiqot” (S. Ibrohimov, T. Boboyev soavt.). “Oʻzbekiston madaniyati”, 1965, dekabr.
26. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”. – Asarlar, 6-jild. – Toshkent, 1965.
27. Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin”. – Asarlar, 7-jild. – Toshkent, 1965.
28. Alisher Navoiy. “Sabʻai sayyor”. – Asarlar, 9-jild. – Toshkent, 1965.

29. Alisher Navoiy. “Saddi Iskandariy”. – Asarlar, 10-jild. – Toshkent, 1965.
30. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. – Asarlar, 13-jild. – Toshkent, 1965.
31. Alisher Navoiy. “Xamsat ul-mutahayyirin”. – Asarlar, 14-jild. – Toshkent, 1965.
32. Alisher Navoiy. “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”. – Asarlar, 14-jild. – Toshkent, 1965.
33. Alisher Navoiy. “Holoti Pahlovon Muhammad”. – Asarlar, 14-jild. – Toshkent, 1965.
34. Alisher Navoiy. “Muhokamat ul-lug‘atayn”, 14-jild. – Toshkent, 1965.
35. Alisher Navoiy. “Tarixi mulki Ajam”, 14-jild. – Toshkent, 1965.
36. “Navoiyning yangi qo‘lyozma asari” (Y. Is‘hoqov bilan hamkorlikda). “O‘zbekiston madaniyati”, 1965, 22-dekabr.
37. “Jomiy va Navoiy”. –Toshkent, 1966.
38. “Navoiy asarlari lug‘ati” (S. Ibrohimov soavt.). –Toshkent, 1966.
39. “Navoiy devonining yangi topilgan qo‘lyozmasi” (f.f. n. Y. Is‘hoqov bilan hamkorlikda). “Sovet O‘zbekistoni”, 1966, 11-dekabr.
40. “Navoiy asarlarining yangi topilgan qo‘lyozmalari”. – “Alisher Navoiy va adabiy ta‘sir masalalari”. –Toshkent, 1968, 302-309 betlar.
41. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror” (ilmiy-tanqidiy matn). –Toshkent, 1967.
42. “Hayrat ul-abror” tanqidiy tekstini tuzishdagi ayrim masalalar”. – Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror” (ilmiy-tanqidiy matn)ga yozilgan so‘zboshi. Toshkent, 1970.
43. “Alisher Navoiy “Xamsa”sining ilmiy-tanqidiy teksti va uni tayyorlash prinsiplari” (ADD). –Toshkent, 1970.
44. “Tarjima haqida tadqiqot” (S. Ibrohimov, T. Boboyev soavt.). “O‘zbekiston madaniyati”. –Toshkent, 1965-yil.

45. O‘zbek adabiyoti. II jild (redaktorlar: R. Majidiy, P. Shamsiyev). –Toshkent, 1959.
46. O‘zbek adabiyoti. III jild (redaktorlar: R. Majidiy, P. Shamsiyev). –Toshkent, 1959.
47. Alisher Navoiy. “Majolis un-nafois”. 12-jild, S. G‘aniyeva (redactor: P. Shamsiyev). Toshkent, 1965.

1.2. Porso Shamsiyev faoliyatining o‘zbek matnshunosligi taraqqiyotida tutgan o‘rni.

Porso Shamsiyevning noyob iste’dodi chuqur bilim egasi ekani ana shunday vaqtlarda – tekstologik tadqiqotlar jarayonida juda yorqin nomoyon bo‘ladi. Porso Shamsiyevning o‘zbek klassik adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishi, fors-tojik adabiyotidan puxta xabardorligi, arab va fors tillarini bilishi matnshunoslik faoliyatida katta yordam berdi.

Ma’lumki, mumtoz adabiyotimiz namunalari, jumladan, Navoiy asarlari ustida tekstologik ishlar olib borish uzoq davrlarda har xil saviyadagi kotiblar tomonidan ko‘chirilgan matnlardagi jiddiy xatolar, chalkashliklarni bartaraf etish atroflicha chuqur bilim, o‘tkir ziyraklik, katta mas’uliyat hamda kasbga nisbatan kuchli muhabbat bilan ish olib borishlikni taqazo qilar edi. Porsoxon Shamsiyevda ana shu xususiyat va fazilatlar mujassamlashgani ishda katta muvaffaqiyatlar qozonishiga zamin yaratdi.

Matnshunos Alisher Navoiy asarlarining bizdagi, Qozon va Leningraddagi ko‘plab noyob nusxalarni ilmiy taomilga kiritdi. Qozon fondidagi Alisher Navoiy asarlarining ikki qo‘lyozma nusxasi olimning diqqatini tortadi. Ulardan biri “Xamsa”ning mukammal nusxasi bo‘lib, kolofonsiz ekan. Porso Shamsiyev uni sinchiklab, qog‘ozi, xat uslubi, bezak yo‘llarini o‘rganib, XVI asrga mansub ekanini aniqlaydi va mufassal tavsifini yaratib, fondga taqdim etadi. Keyinchalik bu manba “Xamsa”ning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashda jalb qilingan 6 mo‘tabar nusxalar qatoriga kiritiladi.

Yana bir nusxa Navoiyning “Ilk devon”I bo‘lib, uni Hirot shahrida hijriy 976 (milodiy 1568) yili Mahmud kotib degan xattot ko‘chirgani qo‘lyozma oxirida

(kolofonda) qayd qilingan ekan. Jiddiy tadqiq etilgach, bu qo‘lyozma Hamid Sulaymonov tomonidan Leningradda topilgan “Ilk devon”ning boshqa bir nusxasi bo‘lib chiqadi. Keyin olim bu ikkala nusxani muqoyasa qilib, barcha farqlarni aniqlab, yuqorida zikr etilgan “Xamsa” va Ozbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan Mahfuz Abduljamil “Xamsa”si haqidagi ma’lumotlar bilan maqola holida “Alisher Navoiy va adabiy ta’sir masalalari” to‘plamida (1968-yil) e’lon qildi.

Ilmiy-tanqidiy matn ustida ishlashni ham Porso Shamsiyev 40-yillarda boshlagan edi. Bu sohada unga Ulug‘ Vatan urushi davrida Toshkentda yashab, ijod etgan E. Bertels, A. N. Kononov va A. S. Tveritinov bilan yaqin muloqotlar, qizg‘in suhbatlar katta yordam bergan va ittifoq miqyosida olib borilgan tekstologok izlanishlar tajribasi bilan atroflicha tanishuv ijobiy ta’sir ko‘rsatgan edi.

Olim 1948-yili urush tufayli kechikib nishonlangan Alisher Navoiy yubileyini o‘tkazishda eng faol mehnat qilganlarning oldingi safida bo‘ldi.

1952-yili Porso Shamsiyev Alisher Navoiy “Sab’ai sayyor” dostonining ilmiy tanqidiy matnini tayyorlab uni nomzodlik dissertatsiyasi sifatida himoya qildi. 1956-yili esa uni alohida nashr ettiradi.

Respublikamiz va dunyoning bir qancha mamlakatlarida “Sab’ai sayyor” dostonining ko‘plab qo‘lyozma nusxalari mavjud. Ilmiy-tanqidiy matnni tuzib chiqishda P. Shamsiyev ana shu nusxalarning aksariyatini o‘rganib chiqdi. Matnshunos tanqidiy matnni tuzishga kirishar ekan, Alisher Navoiy asarlarining avtografi topilmagani, uning asarlari ustida ilmiy tekshirishlar olib borishni qiyinlashtirar edi. Shu bois Navoiy asarlarining ishonchli nusxalari asosida tanqidiy matn tuzish ishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu xususida keyinroq alohida to‘xtalamiz. Chunki dissertatsiyamizning ikkinchi bobini aynan “Sab’ai sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matniga bag‘ishlanadi.

Olim 1956-yili “Sab’ai sayyor”ning ilmiy-tanqidiy matnini tuzib chiqqach, oradan yetti yil o‘tib, 1963-yilda “Xamsa”ning ikkinchi dostoni – “Farhod va Shirin”ning ham tanqidiy matnini nashrdan chiqaradi. Bu doston uchun ham

“Sab’ ai sayyor”dagi kabi “Xamsa”ning qadimiy uchta qo‘lyozmasi, ya’ni kotib Abduljamil, Sultonali Mashhadiy va XVI asrga tegishli M belgisi qo‘yilgan kolofonsiz qo‘lyozma nusxalari asos qilib olindi. Ilmiy-tanqidiy matnning muqaddima qismida bu qo‘lyozmalarning ishonchliligi to‘g‘risida yana ham ko‘proq ma’lumot va faktlar keltiriladi. Masalan, P. Shamsiyev Abduljamil qo‘lyozmasining afzalligi va bebaholigining isboti uchun ikkita muhim faktni aytib o‘tadi. Birinchidan, shoir “Farhod va Shirin” dostonini qaysi tarixda tamomlaganini asar xotimasida:

بحمد الله كه بو غم داستانی

فراق اهلی غه ماتم داستانی

توکاتمای نامه عمر و منی ایام

وصال ایامی ینکلغ تاپتی اتمام

چو تریخی بیلین انکلای دیدیم توز

سیکیز یوز سیکسان ایردی داغی توقوز⁴

Bihamdullohki bu g‘am dostoni,

Firoq ahlig‘a motam dostoni.

Tugatmak nomai umrumni ayyom,

Visol ayyomi yanglig‘ topti itmom.

Chu tarixi yilin anglay dedim tuz,

Sekiz yuz sekson erdi dog‘i to‘quz.

baytlarida ochiq bayon qiladi. Baytlardan ma’lum bo‘ladiki, “Xamsa”ning ikkinchi dostonini shoir 889 (1484) yili tugatgan; ikkinchidan, kotib ham kitobat ishini xuddi shu yil tugallaganini doston oxirida qayd etgan: ۸۸۹ تم الكتاب حرره عبدالجميل (kitob tamom bo‘ldi, uni yozgan Abduljamil, ...889). Olim bu faktlarni keltirib o‘tgach: “Bu ikki hujjatga ko‘ra ijod tarixi bilan kitobat tarixi ayni bir vaqtga yaqinlashganidan aytish mumkinki, Abduljamil (A) nusxasi shoirning bevosita nazorati ostida birinchi original (avtograf)dan ko‘chirilgan hozircha ma’lum, dastlabki nusxadir” deb, fikr bildiradi va shu kabi boshqa qo‘lyozmalar haqida ham qator faktlarni keltirib o‘tadi.

⁴ فرهاد و شیرین. تنقیدی متن. LIV bob, 119-121 bayt.

Bulardan tashqari, matnshunos ishda yana ikki qo'lyozmadan (L₁, L₂) yordamchi nusxa sifatida foydalanadi⁵. Birinchi L₁ nusxa katta kulliyot bo'lib, shoirning 13ta asarini o'zi chiga oladi. Ikkinchi L₂ qo'lyozma esa kichik to'plam bo'lib, bunda "Chihl hadis", "Nazm ul-javohir" asarlar va "Xamsa"ning "Saddi Iskandariy" dostonidan boshqa 4 dostoni mavjud edi. Olim bular haqida yana shu kabi ba'zi ma'lumotlarni keltirib o'tadi. "Sab'ai sayyor"da bu ikki nusxadan foydalanilmagan edi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, Porso Shamsiyev "Sab'ai sayyor" dostonining tanqidiy matnida ba'zi nuqson va kamchiliklarga yo'l qo'rganini ilmiy jamoatchilik oldida tan olishni insoniy burchi deb hisoblab, bunday kamchiliklardan umidsizlanmay, boshlagan ishini davom ettirish va keyingi ishlarda bor kuch-g'ayrati bilan bunday kamchiliklarni bartaraf qilishni oldidagi muhim vazifa deb biladi. "Farhod va Shirin" dostonining ilmiy-tanqidiy matni ana shu aytilgan samimiy so'zlarning isboti o'laroq oldingi "Sab'ai sayyor"ga nisbatan yanada mukammalroq tuzildi. Bu qilingan ishning yana bir yutuqli jihati shundaki, tanqidiy matnning muqaddima qismida bir nechta jadval berilib, undan o'quvchi foydalanilgan qo'lyozma nusxalar yoki doston haqida kengroq tasavvur hosil qilishiga yordam beradi. "Farhod va Shirin" dostonining solishtirma jadvalida olim 5ta qo'lyozma (A, S, M, L₁, L₂) va 3ta toshbosma (SH, M-q, X) nusxalarida boblardagi baytlar miqdorini ko'rsatib o'tsa, yana bir jadvalda dostondagi tarixiy va mifik ismlar ko'rsatkichini keltiradi. Boshqa birida esa geografik nomlar ko'rsatkichi berilgan. Nashr jarayonida xato bosilgan yoki so'zlar va harflar aniq ko'rinmagan joylar ham borki, matnshunos shu kabi hollarda o'quvchi qiynalmasligi uchun "Kitobatda xato bosilgan va harflar ravshan chiqmagan ayrim so'zlarni quyidagicha o'qish kerak" deb, ularni ham jadval tarzida ko'rsatgan.

Matnshunos olim "Xamsa" tarkibidagi dostonlar yuzasidan olib borgan tekstologik ishlari natijasida 1960-yili "Xamsa"ning to'liq matnini nashr etishga muvaffaq bo'ldi. Bu nashr ham matnning to'laligi, savodliligi jihatidan ancha puxta tayyorlangan. Keyinchalik nashr matni XV tomligiga kirgan "Xamsa"

⁵ Bu ikki nusxa Leningrad davlat xalq kutubxonasi fondida saqlanadi (Ханыков, 55 ва Дорн, 559).

dostonlari uchun ham asos bo'ldi. Keyingi yillarda olim Navoiyning ulkan "Xamsa"si tarkibidagi dostonlar ustida olib borgan ishlarini yakunlab, 1970-yili "Alisher Navoiy "Xamsa"sining ilmiy-tanqidiy teksti va uni tayyorlash prinsiplari" degan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi.

Himoyada rasmiy opponentlik qilgan, Ozarboyjon FA ning akademigi Hamid Orasliy, O'zFAning akademigi Vohid Zohidov va O'zFAning muxbir a'zosi prof. Izzat Sultonov Porsoxon Shamsiyevning dissertatsiyasiga yuksak baho bergan va bu ishning yuzaga kelishi yurtimizda tobora rivoj topib borayotgan matnshunoslik sohasiga qo'shilgan katta hissa ekanligini e'tirof etgan edilar.

Olim "Xamsa"ning ilmiy-tanqidiy matniga tayanch va asos bo'lgan qo'lyozma nusxalarning juda aniq va mufassal ilmiy tavsifini, matnni tayyorlash prinsiplarini o'z davri matnshunoslik sohasi talablari darajasida izohlab bergan edi. Bu o'rinda P. Shamsiyevning diqqatga sazovar kashfiyotlari haqida shuni aytish joizki, u kishi har bir qo'lyozmaning matniy o'ziga xosligini birinchi navbatda ishonchliligi nuqtai nazaridan belgilab, tekstologik xato, chalkashlik, orfografik tafovutlarning eng xarakterli jihatlarini aniqlab chiqqan edi. Aytish keraki, aksariyat hollarda matnshunos olimlar bu mashaqqatli va o'ta sinchikovlik bilan olib borilishi zarur bo'lgan mehnatdan cho'chib, barcha farqlarni yoppasiga qayd etish yo'lidan boradilar.

"Hayrat ul-abror" tanqidiy matnini tuzishdagi ayrim masalalar. "Hayrat ul-abror" ulug' shoir Alisher Navoiy yaratgan badiiy asarlarining eng muhtashami va mumtoz adabiyotimizning bebaho durdonasi "Xamsa"ni tashkil etgan dostonlarning birinchisidir. Bu doston turli hajmdagi 63 bobdan iborat bo'lib, qadimiy va mukammal sanalgan Abduljamil kotib nusxasi bo'yicha baytlar soni 3987tani tashkil qiladi.

Olim "Hayrat ul-abror"ning tanqidiy matnini tuzish xususida: "Biz ulug' vatan urushidan keyin "Xamsa"ni tashkil etgan besh dostonning tekst (matn)larini tuzib, nashrga tayyorlashga kirishgan edik. Shulardan 1956-yili to'rtinchi doston "Sab' ai sayyor" tanqidiy teksti nashr etilgan edi. Shundan yetti yil o'tgach, 1963-yili ikkinchi doston hisoblangan "Farhod va Shirin" tanqidiy teksti nashr etildi.

Endilikda biz mana shu “Xamsa”ning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” tanqidiy tekstini ham bosmadan chiqarib, ilmiy jamoatchilik diqqatiga taqdim etish imkoniga ega bo‘ldik” deydi⁶.

Porso Shamsiyev ilgari nashr etgan ikki tanqidiy tekstda uchta qadimiy qo‘lyozmalarni Abduljamil kotib, Sultonali Mashhadiy va XVI asr kolleksiyasi deb sanalgan, M belgisi qo‘yilgan kolofonsiz qo‘lyozmani asosga olib, shular asosida ish yuritgan, boshqa ba’zi bir qo‘lyozma va bosma nusxalarni faqat yordamchi nusxalar sifatida ishga jalb etgan edi. Bu tanqidiy matnda ham olim shu uchta qo‘lyozmani (A, S, M) asos qilib oldi. Shu bilan birga matn ustida ishlash doirasi kengaytirilib, mazkur uch nusxaga qo‘shimcha qilib yana uchta qo‘lyozma ishga solindi va qo‘lyozmalar soni oltitaga yetdi. Uchta toshbosma nashrlar esa yordamchi nusxalar holicha qoldirildi.

Bu matnda P. Shamsiyev yuqorida aytilgan A,S,M nusxalaridan tashqari asosga olingan 4 va 5-nusxalar “Farhod va Shirin” tanqidiy matnini tuzishda L₁ va L₂ belgilari yordamchi vazifasini o‘tagani, endi bu ikki qo‘lyozmani ham asosiy qo‘lyozmalar bilan solishtirib, tayanch nusxalar qatoriga kiritganini aytadi.

Bulardan tashqari, matnshunos oltinchi asosiy qo‘lyozma qilib, yana bir nusxani kiritadi. Aytib o‘tilgan “Xamsa”ning besh qo‘lyozmasidan tashqari bu matnda asosga olingan oltinchi qo‘lyozma Qozon davlat universiteti ilmiy kutubxonasi Sharq bo‘limida saqlanayotgan “Xamsa” qo‘lyozmasidir. Bu haqida P. Shamsiyev: “Ishda foydalanilgan asosiy nusxalarimizning oltinchisi yuqorida aytib o‘tilgan “Xamsa”ning Qozon qo‘lyozmasi ilmga yangidan ma’lum bo‘lgan, keyingi vaqtda biz qo‘lga kiritgan nusxa bo‘lib, har jihatdan ham Abduljamil kotib ko‘chirmasiga yaqin keladigan noyob nusxadir. Garchi bu qo‘lyozmaning kolofoni aniq bo‘lmasa-da, sifat darajasi e’tibor bilan Navoiy asri, hech bo‘lmaganda XVI asr qo‘lyozmalaridan deb qabul qilish mumkin.”⁷ deydi. Qolaversa, olim bu qo‘lyozmaning kashf etilishini matnshunoslik sohasida katta yutuq hisoblab, “Xamsa” dostonlari matni ustida ish olib borishni ham ko‘p

⁶ Porso Shamsiyev. O‘zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar. – Toshkent: fan, 1986. 16-b.

⁷ Porso Shamsiyev. O‘zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar. – Toshkent: fan, 1986. 18 b

jihatdan yengillashtirishini va tekstologiyaga oid bir qancha masalalarni hal qilishda yordam beradi deb, ta’kidlaydi.

Shunday qilib, qolgan ikki – “Layli va Majnun” va “Saddi Iskandariy” dostonlarini ham P. Shamsiyev yuqoridagi qo‘lyozmalar va yana bir necha nusxalar asosida “Xamsa”ning to‘liq ilmiy-tanqidiy matnini tuzib chiqishga muvaffaq bo‘ldi.⁸

Porso Shamsiyev o‘z tanqidiy matnlariga asos bo‘lgan kotiblar, jumladan, Sultonali Mashhadiy haqidagi fanga ma’lum fikrlarni yanada to‘ldirib, Abduljamil kotib hayoti va uning hattotlik san’ati haqida hali ma’lum bo‘lmagan material, faktlarni mufassal sharh va izohlar bilan keltiradi. Olim nomzodlik dissertatsiyasida Abduljamil kotib haqida: “Xamsa” dostonlarining yozilish tarixini belgilab olganimizdan keyin, bu dostonlarni Abduljamil kotib tomonidan ko‘chirilish muddatlarini ko‘zdan kechirish ham qiziqarlidir”⁹ deya, kotib haqida bir qancha ma’lumotlar keltirib o‘tadi. Unda kotib o‘z ishining mohir ustasi ekani, shu sababdan Navoiyning o‘zi asarlaridan nusxa ko‘chirishni ishonib topshirgani haqida qolaversa, olim dissertatsiyada Abduljamil kotib haqida ma’lumotlar keltirilgan asarlar haqida to‘xtalib: “Abduljamil ko‘chirgan bu muhim manba ustida 1944-yilgacha ish olib borilmaganidan bu qo‘lyozmaning o‘zi va ko‘chirguchisi haqida hech narsa yozilmagan edi. Bu masala bilan qiziqish keyingi yillarda, ya’ni “Xamsa” dostonlarining ilmiy-kritik tekstini tayyorlashga kirishilganidan so‘ng paydo bo‘ldi. Abduljamilning shaxsi haqida, ba’zi bir uzoq vositalar orqali bo‘lsa ham dastlabki ma’lumot yuzaga keltirildi. Natijada, Abduljamilning Navoiy zamondoshi ekani, bu qo‘lyozmaning haqiqatan shu kotibga mansubligi isbotlandi. Shu bilan birga ayrim tekshiruvchilar tomonidan Navoiy zamoninig xattotlaridan bo‘lgan bu kishi haqida o‘sha davrning “Ravzatus-safo”, “Habibus-siyar” kabi mo‘tabar tarix kitoblarida ma’lumot yo‘qdek talqin qilinishi bizni ajablantiradi ”– deydi. Porso Shamsiyev bu fikrlarni G‘ulom Karimov “layli va Majnun” ilmiy-tanqidiy matnining muqaddima qismida

⁸ Olim bu dostonlarning tanqidiy matnini nashr etishga ulgirmadi.

⁹ A. Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi, Porso Shamsiyev arxiv fondi.

keltirilgan ma'lumotlarga nisbatan aytadi¹⁰. Matnshunos fikrini davom ettirib: “Ammo bizning sinchiklab tekshirishlarimiz bu shaxsning XV asrda Xurosonda yetishgan ilm ahllari o'rtasida o'ziga yarasha mavqe'ga ega bo'lganini, xattotlikdan tashqari, ilmiy kamoloti ham yetarli ekanini qat'iy aniqladik” deya, Mirxondning “Ravzatus-safo” asari 7-jildida Hirot atrofida yetishgan olimu shoirlar hayoti va faoliyati haqida, shular qatorida Abduljamil va Sultonali Mashhadiyga oid ma'lumotlar borligini ta'kidlab o'tadi.

Porso Shamsiyev ingliz sharqshunosi Charlz Ryoning (London,1888) “Britaniya muzeyi fondidagi turkiy qo'lyozmalar” katalogida Abduljamil kotibning “Tuhfat us-salotin” asari borligidan xabardor edi. Tinimsiz sa'y-harakatlari natijasida olim shu qo'lyozma fotonusxasini olishga muvaffaq bo'ladi. Qo'lyozma bilan tanishib chiqqach, bu kotibning o'z asari bo'lmay, uning tomonidan Alisher Navoiy g'azallaridan olib tuzilgan baytlar majmuasi ekanini, baytlar 45 mavzu bo'yicha saralanib, ular “tuhfa”lar deb atalganini va majmuada 408ta bayt mavjudligini aniqlab berdi.

Matnshunos bu majmuaning yaratilishi uzoq vaqt chuqur mulohaza bilimdonlik bilan olib borilgan jiddiy yondashuvni taqozo etganini bayon etib, uning muqaddimasidan ba'zi parchalarni keltirgan edi. undan ko'rinadiki, Husayn Boyqoro hukmi bilan Navoiyning yaqinlaridan shoir va bastakor Xoja Shahobiddin Abdulloh Marvoriy shoir devonlaridan terma she'rlar tuzib, kitobat qiladi. Buni Husayn Boyqoro huzurida ko'rgan Navoiy shukrlar adosini qalam tili bilan bir ruboiyda izhor qiladi. Bundan g'oyat ta'sirlangan Abduljamil:

*“Ko'nglumga o'zgacha quvvat yetib,
Xoma uchin tez ettim, chun ul tartib.*

Ixtisordin holi ermas erdi (ya'ni, Abdulloh Marvoriy tuzgan majmua qisqa edi). Bu uchurda (bu vaqtda) dog'i mazkur bo'lg'on dastur bila abyot jam'I qilib, qirq besh tuhfa va bir xotima marqum qildi (bitdi). Har tuhfasida chindin latoyif va g'aroyib marg'ub maknun va mavjud va har lafzi bir qissaga shomil va har bayti bir oyatga mutaazzamin va misra'i bir hadisga muvofiqdur”, deb yozadi.

¹⁰ G'. Karimov. “Layli va Majnun” ilmiy-tanqidiy matni, 1944. Muqaddima, 52-bet.

Porso Shamsiyev Alisher Navoiy qo‘lyozmalarining sobiq ittifoq fondlaridagi nusxalarini, ular orasida fanga noma‘lum, tavsiflanmagan, sharhlanmagan juda ko‘plab nodir qo‘lyozma nusxalarni topgan va ularning ilmiy tavsifini bergan edi. Lekin tabiatan sensatsiyaga moyillikni yoqtirmagan P. Shamsiyev bu kabi ishlarni olimning oddiy burchi deb qaraganligidan qilingan ishlar haqida ortiqcha shov-shuv ko‘tarishga yo‘l qo‘ymasdi. Alisher Navoiy tavalludining 525 yillik yubileyida institut tayyorlagan to‘plam uchun Porso Shamsiyevdan yangi topilgan ikki qo‘lyozma haqida maqola uyushtirib olgan edi. Bu qo‘lyozmalardan biri Abduljamil tomonidan ko‘chirilgan “Navodir un-nihoya” devoni bo‘lib, olim bu nusxani Sultonali Mashhadiy ko‘chirgan mashhur nusxa bilan muqoyasa qilib, ham hajm jihatidan, ham g‘azallar tarkibi va tartibi jihatidan hamda matnning to‘g‘riligi nuqtai nazaridan g‘oyat mukammal va savodli nusxa ekanligini isbotlab berdi.

Porsoxon Shamsiyev Alisher Navoiy 525 yillik yubileyi munosabati bilan chop etilgan shoir asarlarining XV tomligi uchun “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Mahbub ul-qulub”, “Munshoat”, “Vaqfiya”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Nazm ul-javohir”, “Arbain” kabi asarlari va “Xamsa”ning barcha dostonlarini tayyorlab bergan edi.

Bulardan tashqari, “O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at”, “Navoiy sarlari lug‘ati” (Sobirjon Ibrohimov bilan birgalikda) kabilarning yaratilishi ham olimning Navoiy asarlari yuzasidan olib borgan ko‘p yillik matnshunoslik tadqiqotlari bilan bog‘liqdir. Bu yaratilgan lug‘atlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas, kerak bo‘lsa, keyingi yaratilgan lug‘atlarning ba‘zilaridan ustun deb aytish mumkin. Misol uchun olimning “Navoiy sarlari lug‘ati”ga e‘tibor qaratsak, har bir so‘zning arab alifbosidagi ko‘rinishi, Navoiyning qaysi asarlaridan olingani va o‘sha asardan bir jumla yoki misra bilan ko‘rsatib o‘tganini ko‘rish mumkin. Qolaversa, so‘zlarning ma‘nosi ham qisqagina emas, to‘laligicha izohlanib, ularning qaysi tilga (arabiy-forsiy yoki yunoncha) oidligi, yana qanday ma‘nolar ifodalashigacha aytib o‘tiladi va bundan o‘quvchi yetarlicha qanoat hosil qiladi. Qarang:

JAVZO جوزا *f.* Eski astronomiyaga ko‘ra – ko‘kdagi o‘n ikki burjning (q. Burj) birisi bo‘lib, bu burj yonma-yon turgan ikki qiz bola shaklida tasavvur etilgan; Bu burj **shamsiya** (quyosh) yil hisobida bahor fasli oylarining uchinchisi bo‘lib, 22-may – 2- iyunga to‘g‘ri keladi; **Javzo tuni** – Javzo oyi kechasi. 214 bet.

DURROJ دراج *a.* Kaklik jinsidan bo‘lgan parranda, qirg‘ovul:

Sher ko‘p afsun bila chun qildi jahd,

Sidq ila durroj dog‘i qildi ahd. (H. A.)¹¹

Olim matnshunoslik iste‘dodining yana bir yorqin qirrasini, uning o‘zbek adabiyoti namoyandalari, jumladan, G‘afur G‘ulom asarlarini nashrga tayyorlash jarayonida ko‘rinadi. P. Shamsiyevning G‘afur G‘ulom bilan do‘st va hamkorligi g‘oyat samimiy va samarali kechgan. 1953–57 yillari G‘afur G‘ulomning to‘rt jildlik majmuasi ko‘p jihatdan Porso Shamsiyevning sa‘y-harakatlari, sinchikovlik va bilimdonligi tufayli yuqori saviyada tayyorlandi. Olim buni shoir tavalludining 50 yilligiga bag‘ishlagan edi. Matnshunos olim Alisher Navoiy asarlari haqida, adabiy aloqalar xususida anchagina ilmiy maqolalar va taqrizlarning ham muallifidir.

Bundan tashqari, P. Shamsiyev (A. Hayitmetov bilan) yana bir xayirli ishni amalga oshirdi. U 1958-yili o‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos iz qoldirgan ajoyib so‘z san‘atkori Boborahim Mashrabning ijodidan ba‘zilarni to‘plab nashr ettirdi va bu Mashrab ijodini o‘rganishdagi dastlabki qadamlardan biri bo‘ldi. Matnshunos bu she‘rlarni “Devoni Mashrab” kitobining, asosan XIX asrda ko‘chirilgan va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 170, 5940, 171, 5694, 7133 inventardagi qo‘lyozmalardan, shu kitobning 1896 va boshqa yillardagi litografiya nashrlaridan tanlab oldi. Kitobga shoirning 49ta g‘azal, 3ta mustazod, 6ta muxammas va 1ta musaddasi kiritilgan.

Porso Shamsiyevning matnshunoslikdagi faoliyati faqat mumtoz adabiyot namoyandalari, xususan, Alisher Navoiy asarlari bilan chegaralanib qolgan emas, albatta. Ustoz olti tomlik “O‘zbek adabiyoti” (xrestomatiya o‘rnida, Toshkent

¹¹ P. Shamsiyev, S. Ibrohimov. Navoiy asarlari lug‘ati. Toshkent, 1966. 204-214 b.

1958–1968) va “O‘zbek poeziyasi antologiyasi” (besh jildlik, Toshkent, 1961–1962) ning nashrlarida ham faol qatnashdi.

Ayniqsa, matnshunos olimning S. Mirzayev bilan birgalikda Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”dek asarini arab alifbosidan tabdil qilgani va to‘liq nashrini amalga oshirgani matnshunoslikdagi katta voqea bo‘lgan edi. Bu kitoblar keyingi tadqiqotlar uchun ham muhim manbaga aylandi.

Olim nashr haqida so‘z yurita turib, “Boburnoma”ning Bobur asarlari ichida eng muhim va eng yirigi ekani, O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid juda nodir va qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, qolaversa, o‘sha davr o‘zbek adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi deya ta’riflaydi.

Porso Shamsiyev bu asarning mavjud to‘liq matni ilk bor (bundan oldin ham “Boburnoma”dan faqat parchalar chiqarilgan) 1857-yili turkolog N. I. Ilminskiy tomonidan Qozonda tipografiya yo‘li bilan o‘zining to‘rt betlik nashr prinsiplarini ko‘rsatgan ruscha so‘z boshisi bilan bosilganini aytadi. Matnshunos bu asarni nashrga tayyorlashda va dunyoga chiqarishda Ilminskiyning katta jasorat ko‘rsatganini alohida ta’kidlaydi.

“Boburnoma”ning keyingi nashri haqida olim yana bir ma’lumotni keltiradi: “Bu nashrdan keyin 1905-yili ingliz orientalistlaridan A. Beverij xonim “Boburnoma”ning Haydarobodda topilgan bir qo‘lyozmasi faksimilesining (qo‘lyozmaning ayni o‘zini) nashr etdi. Bu nusxaning qachon va kim tomonidan ko‘chirilgani noma’lum. Bu ham to‘liq tekst bo‘lsa-da, Qozon bosmasiga nisbatan bazi bir tushib qolgan joylar va ayrim nuqsonlari bordir”¹².

Mana shu ikki mavjud nusxaga asoslanib, P. Shamsiyev va S. Mirzayev “Boburnoma”ni ikki qismdan iborat to‘liq matnini 1948-49 yillari nashr ettirgan edi. Biroq mazkur nashrda bir qancha kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan edi. Bu xususida olimning o‘zi: “Lekin bu nashr, keyingi ishlash protsessida ma’lum bo‘lishicha, juda ko‘p nuqsonlarga ega ekan. Buning asosiy sababi, hammadan

¹² P. Shamsiyev, S. Mirzayev. Boburnoma. – Toshkent: O‘zFA, 1960.

ilgari har ikkala nusxaga befarq yondashishdan, tanqidiy tekshirishning benihoyat passivligidan deb qarash kerak” , – deydi.

Shunday qilib, “Boburnoma”ning bu teksti ana shu keyingi bosmaning qayta boshdan ishlab chiqilishi, ma’lum tuzatishlar kiritilishi natijasida yangidan nashr qilindi. Ilgarigi nashr kabi bunda ham yuqoridagi ikkala bosma nusxa asosga olindi va kitob oxiriga ilova qilingan ko’rsatkichlar ham qayta tuzildi.

Shuningdek, Abdurahmon Jomiyning Navoiy, Navoiyning esa Jomiy haqida yozganlarini yig’ib, alohida so’z boshi bilan “Abdurahmon Jomiy va Aisher Navoiy” nomli to’plamni e’lon qilgani ham taqsiinga loyiq¹³.

Ushbu kitob ulug’ o’zbek shoiri va olimi Alisher Navoiyning ulug’ fors-tojik shoiri va olimi Abdurahmon Jomiy haqida o’zining turli asarlarda bayon qilgan qimmatli va tarixiy fikrlari yig’indisidir. Bu to’plamda kitobxon Jomiy bilan Navoiy orasidagi yaqin munosabat, chin do’sstlik va hamkorlikka oid eng muhim ma’lumotlarga ega bo’lishi bilan birga, mavlono Jomiyning hayoti, ilmiy va adabiy faoliyatining ayrim lavhalari bilan ham tanishishga muyassar bo’ladi.

To’plamning yana bir eng muhim jihati shundaki, Navoiyning Jomiyga bag’ishlab yozgan va ilmiy jamoatchilik uchun g’oyatda zaruriy manba bo’lgan “Xamsat ul-mutahayyirin” asari to’plam ichida birinchi marotaba nashr ettirilgan edi.

Qolaversa, Porso Shamsiyev tarjima sohasida ham qalam tebratgan. U Navoiyning birinchi biografi Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarini fors tilidan o’zbekchaga tarjima qilib, keng jamoatchilikka taqdim etdi. Bu tarjima bir necha marta nashr etilgan edi.

Mehnatsevarlik Porso Shamsiyevga xos xususiyat edi. Yarim asr mobaynida ming bosma betdan ortiq asarlar bevosita P. Shamsiyevning ishtiroki, yoxud tahriri ostida nashr etilishining o’ziyoq uning ulkan mehnatsevarligidan dalolat berib turibdi.

¹³ P. Shamsiyev. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy. – Toshkent: Fan, 1966.

1972-yilda ulug‘ ustoz Porso Shamsiyevning 70 yillik yubileyi keng nishonlndi. Hukumat olimning ko‘p yillik samarali mehnatlarini qadrlab, unga “O‘zbekiston SSR da xizmat ko‘rsatgan fan arbobi” unvonini bergan edi.

Porso Shamsiyev 1973-yilning 23 martida vafot etdi. Ko‘p orzulari armon bo‘lib qoldi. Ustoz “Xamsa” dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnini bir jildda, bir muqovada ko‘rishni istardi. Abduljamil kotib tayyorlagan “Tuhfat us-salotin”ni nashr qildirish niyatida edi. Mumtoz adabiyotimiz asarlariga ko‘p jildli izohli lug‘atlar yaratilishini xohlar edi. Olim tayyorlagan bir qancha ishlar chop etilmay qoldi. Ular orasida Navoiyning “Layli va Majnun” hamda “Saddi Iskandariy” dostonlarining ilmiy-tanqidiy matni (arab yozuvida), Navoiyning barcha asarlaridagi hikoyatlardan tuzilgan to‘plam, Abduljamil kotibning “Tuhfat us-salotin” nomli shohbaytlar majmuasi, qator maqolalar shular jumlasidandir.

Olimning vafotidan so‘ng u kishining chala qolgan yoki tayyor bo‘lib, nashr etishga ulgirmagan ishlarini shogirdlari ustoz xotirasi uchun yakunlab qo‘ydilar. Jumladan, Abduljamil kotibning “Tuhfat us-salotin” asari 2007-yili Suyima G‘aniyeva tomonidan nashr qilindi.

Porso Shamsiyev – o‘zbek matnshunosligining asoschilaridan biri sifatida qariyb 50 yil moboynida klassik shoirlarimiz, xususan, Alisher Navoiy asarlarini to‘plash, o‘rganish va nashrga tayyorlash ishlari bilan muttasil shug‘ullanib kelgan, ko‘plab asarlarning matnini yaratgan olim edi.

II bob . “Sab’ ai sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda asos bo‘lgan manbalar tahlili

Ma’lumki, ulug‘ mutafakkir shoir Alisher Navoiyning “Xamsa”si tarkibiga kirgan “Sab’ ai sayyor” dostoni tanqidiy matnini taniqli matnshunos olim Porso Shamsiyev o‘z nomzodlik dissertatsiya doirasida tadqiq etgan. Olim doston matni ustidagi tadqiqotini 1952-yili yozib, ilmiy-tanqidiy matnni 1956-yili alohida nashr ettirdi.

Respublikamiz va dunyoning bir qancha mamlakatlarida “Sab’ ai sayyor” dostonining ko‘plab qo‘lyozma nusxalari mavjud. Ilmiy-tanqidiy matnni tuzib chiqishda P. Shamsiyev ana shu nusxalarning aksariyatini o‘rganib chiqdi. Aytish mumkinki, olimning noyob iste’dodi va chuqur bilim egasi ekani tekstologik tadqiqotlar jarayonida juda yorqin namoyon bo‘ldi.

2.1. “Sab’ ai sayyor” dostoninig qo‘lyozma va toshbosma manbalari.

Matnshunos tanqidiy matnni tuzishga kirishar ekan Alisher Navoiy asarlarining avtografi topilmagani, uning asarlari ustida ilmiy tekshirishlar olib borishni qiyinlashtirar edi. Shu bois Navoiy asarlarining ishonchli nusxalari asosida tanqidiy matn tuzish ishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Navoiy asarlarining nusxalari uzoq yillar davomida turli yerlarda, har xil saviyadagi kotiblar va ijtimoiy guruhlariga mansub bo‘lgan kishilar tomonidan ko‘chirilgan, bu nusxalardan o‘z navbatida yana nusxalar ko‘chirib olingan. Nusxalarning ko‘chirilish jarayonida ba’zan, ko‘chiruvchilarning beparvoligi, ba’zida esa savod darajasining pastligi sababli matnda turli xil nuqsonlar yuzaga kelgan. Mana shunday qator nusxalar orasidan eng ishonchli qo‘lyozmalarning munosibini to‘plash va shular asosida tanqidiy matn tuzish olim zimmasiga katta mas’uliyat yuklar edi.

Navoiy “Xamsa”sining turli davrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozmalari orasida juda qadimiy bo‘lgan nusxalari ham davrimizgacha saqlanib qolgan. P. Shamsiyev bu qo‘lyozmalarni qiyosiy o‘rganib, orasidan XV asrda, Navoiy hayotlik chog‘ida

Hirotning mashhur kotiblari sanalgan Abduljamil va Sultonali tomonidan ko‘chirilgan nusxalarni ilmiy-tanqidiy matn tuzishda asosiy manba sifatida tanlab oldi. Bular ichidan eng yaxshisi Abduljamil qo‘lyozmasi edi.¹⁴ Doston oxirida qayd etilishicha, Navoiy “Sab’ai sayyor” dostonini hijriy 889 (m. 1484) yilda yozib tugatgan. Kotib ham asarni shu yildayoq oqqa ko‘chirishga erishgan. Mana shu jihatdan ham bu qo‘lyozma boshqalariga qaraganda mo‘tabardir. Hatto, P.Shamsiyev Abduljamil qo‘lyozmasini shoirning bevosita nazorati ostida birinchi originaldan ko‘chirilgan dastlabki nusxa yoki eng birinchi nusxalardan biri ekanini ta’kidlaydi. Doston so‘ngida shoir:

Varaqu satrin aylabon ta`yin,

Baytini besh ming ayladim taxmin,

deya aniqlab bergan ma’lumoti (10.000 misra)ga nusxa to‘la mos keladi, ya’ni doston matnining shu nusxada to‘liq mavjudligi bunga yana bir dalildir.

Porso Shamsiyev yana bir yordamchi nusxa sifatida foydalangan qo‘lyozma Navoiy yashagan davrning mashhur xattotlaridan Sultonali Mashhadiy ko‘chirgan nusxadir.¹⁵ Kotibning qayd etilishicha, asar 892 (m. 1492 – 93) yilda tugallangan. Olimning aniqlashicha, Sultonali nusxasida Abduljamil nusxasiga nisbatan, to‘rt misra yetishmaydi. Shunga qaramasdan, bu nusxani ham ishonchli nusxalar qatoriga qo‘shish mumkin.

Bu ikki nusxadan tashqari “Xamsa”ning boshqa yana bir qadimiy nusxasi bo‘lib, uning ko‘chiruvchisi va ko‘chirilgan yili haqida nusxaning o‘zida hech qanday ma’lumot keltirilmagan. Lekin xatining Abduljamil bilan Sultonalinikiga o‘xshashligi va boshqa belgilari qo‘lyozmaning qadimiyligidan darak beradi. P.Shamsiyev nusxaning belgilariga qarab, XVI asrga oid qo‘lyozma, deb taxmin qiladi. Bu nusxa ham ishonchli, original nusxaga yaqin turganligi bois yordamchi nusxa sifatida qabul qilinadi.¹⁶ Shunday qilib, “Sab’ai sayyor” dostonining tanqidiy matni mana shu uch nusxa asosida tuzildi.

¹⁴ O‘zFA Sharqshunoslik institutining kitob fondi, inv. № 5018.

¹⁵ Bu nusxa Leningradda Saltikov-Shchedrin nomidagi xalq kutubxonasida saqlanmoqda. Inv. № 13563.

¹⁶ O‘zFA Sharqshunoslik instituti, inv. № 7554.

Aytib o‘tilgan bu nusxalardan tashqari Porso Shamsiyev keyingi davrlarda ko‘chirilgan yana bir qancha qo‘lyozmalarni ko‘zdan kechirib chiqdi. Matnshunos boshqa nusxalar to‘g‘risida: “Navoiy “Xamsa”sining XVII – XIX asrlarga oid va turli shaharlarda ko‘chirilgan juda ko‘p qo‘lyozmalarning hammasini sinchiklab ko‘rib chiqishga vaqt yetkazib bo‘lmaydi, albatta. Shuning uchun ish protsessida turli davr qo‘lyozmalaridan to‘rttasini saylab oldik (O‘zFA Sharqshunoslik instituti 1679 (1682 y.), 3459 (1800 y.), 4489 (1830 y.) va 1316 (1888 y.) raqamli “Xamsa” qo‘lyozma nusxalari.) va ularni XV – XVI asr qo‘lyozmalariga solishtirib chiqdik. Shuningdek, “Xamsa”ning revolyutsiyaga qadar bosilgan nusxalarini (Kotib Shomurod, Toshkent: 1904. Kotib Mannofqori, Toshkent: 1905. Kotib Muhammad Yusuf, Xeva: 1880.) ham o‘sha qo‘lyozmalarga solishtirib ko‘rildi. Natijada turli asrlarga oid mazkur qo‘lyozmalarni va litografiya nashrlarini tekstologiya ishida asosga olib bo‘lmasligi, hatto yordamchi nusxa sifatida ham foydalanish mumkin emasligiga to‘la ishonch hosil qildik” deydi.

2.2. “Sab’ai sayyor” dostoni tanqidiy matnining tavsifi va uning nashrlari qiyosiy tahlili

Ilmiy tanqidiy matn tuzish jarayonida olim dostonni nomlash bilan bog‘liq masalaga ham e’tibor qaratadi va bu xususida: “Doston nomini Navoiyning o‘zi:

Bo‘ldi chun bu raqam shi tayyor,

Qo‘ydim otini sab‘ai sayyor –

deb, aniq ko‘rsatib bersada, nima uchundir bu asar “Sab’ai sayyora” (Yetti sayyora) deb atab kelindi. Holbuki, Navoiyning o‘zi doston xotimasida bu asarning asosini tashkil etgan yetti hikoyaga diqqatni jalb etadi. Yetti hikoyaning aytuvchisi yetti musofir (kezuvcchi) bo‘lib, bularning “sayr ishiga mohir” ekanliklarini ta’kidlab, shu sababdan asarni “Sab’ai sayyor” (yetti kezuvcchi) ataganini uqtiradi. Shuning uchun doston nomini Navoiyning o‘zi ta’kidlaganicha “yetti kezuvcchi” degan ma’noni ifodalovchi “Sab’ai sayyor” shaklida yozishni muvofiq topdik.” deb, fikr bildiradi.

Porso Shamsiyev tanqidiy matnining kirish soʻzi quyidagi reja asosida olib boriladi:

“Sabʼai sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matni uchun yoziladigan kirish soʻz plani.

I

- I. Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy teksti va uning prinsiplariga oid*
 - 1. Tanqidiy tekstning ahamiyati.*
 - 2. Tanqidiy tekstlarning prinsiplari haqida.*
 - 3. Tayyorlangan baʼzi bir tanqidiy tekstlarning xarakteristikasi. 1/ “Muhokamat ul-lugʼatayn”; 2/ “Hayrat ul-abror”; 3/ “Layli va Majnun”; 4/ “Mahbub ul-qulub”; 5/ “Meʼzon ul-avzon”.*
 - 4. “Sabʼai sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy tekstini tayyorlash prinsipi haqida.*
- II. “Sabʼai sayyor” dostoninigi tadqiqiy tekstini tayyorlashda asosga olingan nusxalar.*
 - 1. Nashr etilgan nusxalar va ularning ilmiy ish uchun yaroqsizligi (Xorazm: Shomurod, Mannofqori va 1948-yil nusxalari).*
 - 2. Qoʻlyozmalarning koʻpligi va ularning umumiy xarakteristikasi.*
 - 3. Asosga olish mumkin boʻlgan mavjud nusxalar (Abduljamil, Sultonali va Muhammadbek nusxalari).*
- III. Abduljamil (A) nusxasining xususiyatlari.*
 - 1. A nusxasi bizgacha yetib kelgan eng eski qoʻlyozma.*
 - 2. A nusxasi shoirning asl originalidan ketma-ket koʻchirilganligi va koʻchirilish tartibi.*
 - 3. Abduljamil haqida maʼlumot.*
- IV. Sultonali (S) nusxasining ahamiyati va kamchiliklari.*
 - 1. Sultonali haqida maʼlumot.*
- V. Muhammadbek (M) nusxasi haqida maʼlumot.*
- VI. Tanqidiy ravishda tekshirib chiqilgan XVII, XVIII va XIX asr nusxalari haqida.*

VII. *Eski qo‘lyozmalardagi imlo masalasiga doir.*

VIII. *Tanqidiy tekstda qo‘llanilgan ishoratlar.*

IX. *“Sab‘ai sayyor” nomini qanday anglash kerakligi haqida.*

II

I. *Qo‘shimchalar*

1. *Orfografik farqlar tablitsasi.*

2. *Dostondagi atoqli va jug‘rofiy nomlar ko‘rsatkichi.*

3. *Izohlar.*

4. *Doston nusxalarining bibliografiyasi.*

III

I. *Tanqidiy tekst.*

Endi yuqorida aytilgan tayanch va yordamchi hisoblangan uchta qo‘lyozma nusxalarning o‘zaro bir-biridan farqli jihatlari va tanqidiy matn tuzish jarayonida kiritilgan tuzatishlar haqida to‘xtalamiz. Bunday farqlarni guruhlarga ajratib o‘rganish mumkin. Porso Shamsiyevning o‘zi ham asosiy farqlar va muhim orfografik farqlarga bo‘lib o‘ganish mumkinligi haqida aytib o‘tadi. Matnshunos qo‘lyozma nusxalardagi farqlarni sahifa ostiga ko‘rsatib o‘tgan va bu qo‘lyozmalar haqida yanada aniqroq tasvvurga ega bo‘lishimizda katta yordam beradi. Masalan, asosiy, ya‘ni bayt yoki misra mazmuniga ta‘sir qiluvchi farqlar:

Ilmiy-tanqidiy matn I bob 13a misradagi “كوكب” (kavkab – yulduz) so‘zi Abduljamil nusxasida ham, Sultonlida ham shunday yozilgan, uchinchi, yordamchi M nusxada esa ”كوهر” (gavhar) shaklida kelgan. Bu yerda qaysi variant to‘g‘riligini bilish uchun faqat baytning o‘zini emas, shu bobning o‘zini boshidan o‘qib ko‘rish kerak. Hech bo‘lmaganda bundan oldingi baytga e‘tibor qaratish lozim:

Yeti gardun demayki, yetti lagan,

Har biri ichra sham‘ nurafgan.

Har lagan durji kavkabafruzi,

Kavkabi gavhari shabafruzi.

Ya'ni, yetti gardun – osmon qopqasi yettita lagandurki, ularning har biri ichida yettitadan nur taratayotgan sham' – quyosh bor. Har bir gardunning durji – og'zi yoki chegarasi atrofida uning yoniq, nur sochuvchi yulduzlari bor. Bu yulduzlar kechani ham yorituvchi gavharlardir.

41a misrada “نورونك” (nurung) so'zi ham M nusxada “يوزونك” (yuzung) deb berilgan.

Chunki ul subh nurung etti zuhur,

Uylakim, tiyra shom jabhai hur.

Ikkinchi misolda ham “nurung” deyish to'g'riroq bo'ladi. Chunki Allohning yuzi emas, nuri zuhur etadi. Agar bu so'zning o'rniga “yuzung” qo'yilsa, misra mazmuniga putur yetadi. Ayon bo'ladiki, mazmunan yuqoridagi ikki nusxadagi so'zlar to'la mos kelgan. Shu bois Porso Shamsiyev tanqidiy matnga shu “كوكب” va “نورونك” variantlarini kiritdi. Shu bob 61a misra “اورتاماك” (o'rtamak) so'zi faqat Abduljamil nusxasida shunday yozilgan. Sultonali va M nusxasida esa bu so'z “اورتاكان” (o'rtagan) deb berilgan. Keltirilgan variantlardan qaysi birining mazmunga mos kelishini bilish uchun baytni biroz e'tibor bilan o'qishning o'zi kifoya:

هم انكا اورتاماك بويورغان عشق

هم مونونك جانيجا اوت اورغان عشق

Ham anga o'rtamak buyurg'on ishq,

Ham munung jonig'a o't urg'on ishq.

Ko'rinadiki, baytda ishqdan kishining o'rtanishi haqida aytilgan. Agar “o'rtamak” o'rniga “o'rtagan” so'zi qo'yilsa, bayt mazmuni to'laligicha ochilmaydi. Shuning uchun ham birinchi variantni to'g'ri deb aytsak bo'ladi. Bunday farqlar barcha boblarda uchraydi. Endi ularning ba'zilaridan misollar keltiramiz:

III bob 8b misradagi “ايلاسا” (aylasa) so'zi S va M nusxalarda “ايلابان” (aylabon), 17b “منار” (manor) Sultonolida “رواق” (ravoq). IV bob 42a “انداق” (andoq) S nusxada “اندين” (ondin), M da esa “ايدين” (oydin) tarzida kelgan. VI bob 80a “مور” (mo'r) S da “روم” (ro'm) yozilgan. VII bob 19a “بيركا” (birga) M

nusxada “پرکا” (yerga) shaklida kelgan. VII bob 33a “هر فنداكم” (har fandakim), S.M nusxalarida “بر فنداكم” (bir fandakim), VIII bob 20a “هر برى” (har biri) A, Sda bu “بر برى” (bir biri), 27a “رنگ” (rang) S nusxada “وش” (vash), 30b “تمكين” (tamkin) M nusxada “تسكين” (taskin). IX bob 3b “بولسا” (bo‘lsa) S da “قىلسا” (qilsa), M da esa “قىلسه” shaklida kelgan. 82a “رنجور” (ranjur) M da “مهجور” (mahjur). X bob 23b “كوندوز” (kunduz) M da “چرخ” (charx) kelgan. XI bob 8b “ايريب” (erib) so‘zi S, M. da “ايرور” (erur), 32a “قلم” (qalam) so‘zi S da “رقم” (raqam). XII bob 6a misra “فلك” (falak) M da esa “كوزين” (ko‘zin), 61a “بسي” (base) so‘zi ham M da “باري” (bore), 78a “ممنون” (mamnun) so‘zi S da “مجنون” (majnun) yozilgan. XIII bob 24b “تاپاي” (toay) so‘zi S da “تاپماي” (topmay) yozilgan, 75b “كيبى” (kibi) S da “ارا” (aro) bo‘lib kelgan. XIV bob 5a “سرو” (sarv) so‘zi M da “شه و” (shahu) yozilgan, 56a “وصل” (vasl) so‘zi, A da “وسلى” (vasli), 67a “ايتكاي” (etgay) S da “ايلاي” (aylay), 73b “اوزكا” (o‘zga yer) A da “اوزكا بر” (o‘zga bir) bo‘lib kelgan. XVII 57b “دوا” (davo) S da “نوا” (navo). XIX bob 13a “چون” (chun) S da “كيم” (kim), 18a “كوركاچ” (ko‘rgach) M da “قىلغاج” (qilg‘och) yozilgan. XXI 50a “لاله” (lola) M da “نالہ” (nola), 54a “جفا” (jafo) S, M da “فغان” (fig‘on). XXIII 17a “فسون” (fusun) M da “فنون” (funun), 82a “دقيق” (daqiq) S, Mda “رقيق” (raqiq) yozilgan. XXV 7b “انكا” (anga) Sda “ارا” (aro), 74b “زياده” (ziyoda) S. da “اراده” (aroda) yozilgan.

Qolaversa, yana shunday holatlar borki, bir so‘z uchala nusxada ham bir xil yozilgan, lekin bu so‘z bayt mazmuniga to‘la mos kelmaydi. Masalan, II bob 25b misraga e’tibor qarataylik:

طاعت ايلاردا مور خسته برين

ليك عصيان محلى شير عرين

Toat aylarda mo‘ri xasta barin,

Lek isyon mahali sheri arin.

Misradagi “برين” so‘zi uchta nusxada ham “سرین” deb berilgan. Shu kabi holatlar uchraganda, olim nusxani o‘z holicha qoldirmay, baytning mazmuni va boshqa tekshirishlardan kelib chiqadigan xulosalar asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri tekstning o‘ziga tuzatish kiritgan.

Keltirilgan misollarimiz faqat mazmun jihatidan farqlar bo'lsa, endi keltiradigan misollarimiz so'z oxirida qo'shimchalarning qo'llanishi bilan bog'liq farqlardir. Masalan: V bob 12b misra "اهلى دا" (ahlida) so'zi S nusxada "اهلى غه" (ahlig'a) shaklida kelib, misra mazmuniga nisbatan so'z oxiridagi qo'shimcha noto'g'ri qo'llangan edi. Bunda ham olim tanqidiy matnga tanlangan "اهلى دا" (ahlida) varianti misra mazmuniga to'la mos keladi:

انكلا اول سوزنى نكتة توحيد

وحدت اهلى دا يوق مونكا تردید

Angla ul so'zni nuktai tavhid,

Vahdat ahlida yo'q munga tardid.

VIII bob 14a "خردقه" (xiradqa) so'zi Sda "خردغه" (xiradg'a), III bob 21a "شبانليغ" (shibonlig') so'zi S, M nusxalarida "شبانليق" (shibonliq) shaklida kelgan, Shu kabi farqlar ko'proq M nusxada uchraydi. Quyida farqlarni jadval tarzida ko'rsatamiz.

Ilmiy-tanqidiy matn	Qo'lyozma nusxalar
II bob. 38a,b چاغليق	M. جاغليغ
III bob. 21a شبانليغ	S, M. شبانليق
V bob. 11b سونكقى	S. سونكغى
V bob. 12b اهليدا	S. اهليغه
IX bob. 83b مستليغ	S,M. مستليق
X bob. 1b آفرينشغه	M. آفرينشقه
X bob. 13a عهدغه	M. عهدقا
XI bob. 11b صدقغه	S. صدقغه
XII bob. 12a ايشدا	S,M. ايشتا
XIV bob. 22a ققنس قه	S. ققنس غه
XVII bob. 75a قرانغو	S, M. قرانغو
XXI bob.89b توشدا	S, M. توشتا
XXI bob. 92a كوزيدا	M. كوزيكا
XXI bob. 258a كيشى كا	S, M. كيشى دا

XXIII bob.24a	شه غه	M.	شه قه
XXIII bob. 197b	حالينگز غا	S.	حالينگز كا
XXIV bob. 98a	ايچى كا	M.	ايچيدا
XXVII bob. 116b	باشيدا	M.	باشيغه
XXVII bob. 203b	بورونقى	M.	بورونقى
XXVII bob. 321b	اچماكتا	S.	اچمكدا
XXIX bob. 212b	طرف قه	M.	طرف غه
XXX bob. 36b	ايچى كا	S.	ايچيدا
XXXI bob. 154a	طبع غه	M.	طبع قه
XXXIII bob. 9b	ماه وشغه	M.	ماه وشقه
XXXIII bob. 196a	تارتماقتا	S, M.	تارتماققا
XXXIII bob. 320b	اكي دا	S, M.	اكي تا

Ko‘rib o‘tganimizdek, qo‘shimchalarning ba‘zilari so‘z ma‘nosiga ta‘sir qilsa, ba‘zilari ma‘noga ta‘sir qilmay, faqat shaklan farq qiladi. Demak, so‘z oxiridagi qo‘shimchalarni ham mazmunga ta‘sir qilish yoki qilmasligiga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin ekan.

Qo‘lyozma nusxalarda so‘zlarning va qo‘shimchalarning tushib qolishi yoki orttirilishi natijasida misralarda vazn buzilish holatlari ham mavjud. Adabiyotshunos olim Natan Mallayev “Sab‘ai sayyor” dostoni xafif bahrida yozilgani haqida shunday deydi: “Firdavsiy dostoni butun “Shohnoma”ning yagona vazni bo‘lgan mutaqoribda yozilgan bo‘lsa, Nizomiy bu sarguzasht dostonini xafif bahrida (foilotun mafoilun fa‘lun) yozadi. Nizomiydan keyin barcha xamsanavislar Bahrom Go‘r haqidagi dostonlarini shu vaznda yaratadilar”¹⁷. Porso Shamsiyev qo‘lyozmalardagi ana shunday vazn buzilgan joylarni aniqlab, tuzatishlar kiritdi. Endi baytlarda olim kiritgan vazniy tuzatishlarning ba‘zilaridan misollar keltiramiz:

VI bob 1a misra:

سوزكه جان كلشنى كيلدى نسيم

¹⁷ Natan Mallayev “O‘zbek adabiyoti tarixi” birinchi kitob. – O‘qituvchi nashriyoti, 1965. 477.b.

بل کونکول بحوی ایچرا در یتي

So 'zki, jon gulshanida keldi nasim,

Bal ko 'ngul bahri ichra durri yatim.

Sultonali nusxasida “da” tushgan. **VII bob 2a misra:**

علم درياسیغه حباب سپهر

یوق کی اول بحر ایچندا کوهر مهر

Ilmi daryosig 'a hubob sipehr,

Yo 'qki, ul bahr ichinda gavhar-mehr.

S,M nusxalarda “ilm” yozilgan. **VIII bob 108a:**

چون توزوب بساط اوتمیش لار

قیلمايين احتیاط اوتمیش لار

Chun tuzub bu bisot o 'tmishlar,

Qilmayin ehtiyot o 'tmishlar.

Sda “bu” so'zi tushgan. **XI bob 60a:**

کشورین آدی اولغاچ پنهان

نیچا یوز مینک چریک بیلا خاقان

Kishvarin oldi, o 'lg 'ach ul pinhon,

Necha yuz ming cherik bila xoqon.

M da “ul” tushgan. **XII bob 113b:**

مین کیبی کیمسا چیکسا یوز مینک تیل

بولماغای وصفی شرح یوز مینک ییل

Men kibi kimsa cheksa yuz ming til,

Bo 'lmag 'ay vasfi sharhi yuzming yil.

S,M da “sharh” yozilgan. **XIII bob 10b:**

یاندی اول حیل هم قیلیب تعجیل

قسطع اولور دشت میل بمیل

Yondi ul xayl ham qilib ta 'jil,

Qat' o 'lur erdi dasht mil-bamil.

M da “erdi” tushgan. **XIV bob 58b:**

اوت سالیب جانیغا وصلی انینک

هجر يادی نی احتمالی انینک

O't solib jonig'a visoli oning,

Hajri yodi ne ehtimoli oning.

S,M da "hajr" yozilgan. **XV bob 6a:**

هم قلم زن توشوب حواله ارا

بولوبان خلق روزکاری قرا

Ham qalamzan tushub havola aro,

Bo 'libon xalq ro'zgori qaro.

Abduljamilda "zan" tushgan. **XVI bob 65a:**

هجر اوتیغا چو استاسانک هیمه

زار تن لاردين اوزکا یوق نیمه

Hajr o'tig'a chu istasang hema,

Zor tanlardin o'zga yo'q nima.

S da "chu" tushgan. **XXI bob 322a:**

دیدى ای مهوش پرى پیکر

سین کیبی ایلکا بخت اولوب یار

Dedi: ey mahvashi paripaykar,

Sen kibi elga baxt o'lub yovar.

A da "ey" tushgan.

Matnshunos olim qo'lyozmalarda shu kabi yana bir qancha vazn buzilgan o'rinlarni tuzatgan yoki ular ichidan vazn talabiga moslarini tanlab olib, tanqidiy matniga kiritgan. Lekin ba'zi joylarda tuzatilmay qolib ketgan, yoki noto'g'ri tanlangan variantlar ham uchraydi, masalan:

Tanqidiy matnning XXI bob 121b misra:

توتمانکیز بودیار اچیندا مقام

قایتینکیز والسلام ولا کرام

Tutmangiz bu diyori ichinda maqom,

Qaytingiz, vassalomu val ikrom.

Belgilangan soʻzga eʼtibor bersak, aruz vaznining xafif bahri (foilotun mafoilun faʼlun)ga “val ikrom” deyish aniq tushmaganini sezish mumkin, agar buni “val kirom” desak, toʻla mos keladi. Taqteʼga qarang:

Qay ti ngiz vas – foilotun, sa lo mu val – mafoilun, ki rom – faʼlun.

Yana bir misol: XXXI bob 312a:

شجر و چشمه ماجراسینى هم

صندلى قصر سمیاسینى هم

***Shajaru** chashma mojarosini ham,*

Sandali qasri simiyosini ham.

a misradagi “shajaru” soʻzi vazn talabiga koʻra, “Shojaru” yoki “Ashjaru” deb yozilsa, vaznga tushar edi:

Sho ja ru chash – foilotun, ma mo ja ro – mafoilun, sini ham, faʼlun

Shu misralar 1960-yildagi nashrda, Vahob Rahmonov nashri va 10 jildlikda ham tuzatilmagan. Yana bir misol, P. Shamsiyev nashri VII bob 17b misrada vazn buzilgan va bu ham yuqoridagi uchala nusxada tuzatilmagan:

Uyla Haq zoti ichra mustagʻraq,

Ki asar qolmayin anga juz haq.

Vazni talabiga koʻra, misralar choʻziq hijo bilan boshlanishi kerak edi. Birinchi misrada toʻgʻri, chunki yopiq hijo bilan boshlangan “Uy-la”. Ikkinchi misrada esa ochiq qisqa hijo bilan boshlangan. Bunday yozilish foilotunga tushishi uchun “Ki” emas, “Kim” deb yozilsa, vaznga mos tushardi. Qarang:

Kim a sar qol – foilotun, ma yin an ga – mafoilun, juz haq – faʼlun.

10 jildlik va VR¹⁸ nusxalarida esa “juz” soʻzi tushirilgan, demak bu yerda ham vazn buzilgan. Mana shu kabi kamchiliklar keyingi chiqariladigan nashrlarda tuzatilishiga umid qilamiz.

Bulardan tashqari, boblarning kirish qismlarida soʻzlarning tushishi yoki kiritilishi, yozilishi bilan bogʻliq (shakliy) va biror soʻz oʻrnida boshqa soʻzning qoʻllanishi kabi farqlar ham mavjud. Masalan: tanqidiy matn III bob 1-qator “یناهی” یناه نعتندا کم لولاک لوی بیله” yozilgan boʻlsa, M nusxada bu: “یناه نعتندا کم لولاک لوی بیله”

¹⁸ Vahob Rahmonovda 17b misradagi “qolmayin” soʻzi “dolmayin” deb berilgan.

ko‘rinishida kelgan. Shu bob 2-qator “اسرى” so‘zi Mda “اسرا” ko‘rinishida yozilgan. IV bob 1-qator Sultonali nusxasida “پيما” so‘zi tushgan. VIII bob 2-qator. والدين سلطان 2,3 bob IX SM nusxalarda “و بساطين طرحىنى” yozilgan. ابولغازى سلطان حسين بهادر خان “مدحتى” S nusxada “ملكه و سلطانه مدحتى” tarzida berilgan. Ish jarayonida Porso Shamsiyev qo‘lyozmalardagi bu farqlardan mazmunga va yozuv qoidalariga to‘g‘ri keladigan eng ma‘qul variantlarni tanlab olib, tanqidiy matnga kiritdi.

Ilmiy-tanqidiy matn	Qo‘lyozma nusxalar
II b 2. بلکہ	SM. بلک
II b 2. كناهغه	S. كناهى
II b 4. درپای وجودى الیدانى موجود	S. درپاجودى الیدانى وجود
III b 3. ثبوتیغا	S, M. ثبوتى غ
III b 3. یوزى	M. نورى
X b 2. محخوبلیغ ‘روپوشلیغ	M. محخوبلیق ‘روپوشلیق
XI b 2. داستانى دا	S, M. داستاندا
XI b 3. بیر اوی مکان	S, M. پنز او مکانى
XII b 2. و مانى	S. shu so‘z tushgan
XIII b 1. کمالیندا	S. کمالیدا
XIV b 3. جان	S. جانى
XIV b 3. تارتغانى	S, M. تارتقانى
XVI b 2.3. مشکبو ‘اویغاغ لیق دا	S. مشکبوی ‘الوغ لیق
XVII b 4. و ارکان دولتى	S. و ارکان دولت
XVIII b 1. اوز پریشى	S. اوز پرى وش
XVIII b 4. قیلغان لالر	S. قیلغانى
XIX b 2. بر	S, M. shu so‘z yo‘q
XX b 2. مشغول لوق	S. مشغول لیق
XXII b 2. حله لیغ	M. حله لیق
XXII b 3. آچیلغانى	M. آچیلغان
XXII b 4. بیر ییل چا	A. بیر ییل

XXX b 2.	بوی دا	S.	بوغە
XXXII b 1	ادینه	S, M.	ادینه
XXXIV b 4.	انفاسی مسیح لاری	M.	مسیح نفس لاری
XXXIV b 4.	کیوور کانی	S,M.	کیوور کانی
XXXV b 2.	چرکه سیکا	S.	چرکه سی غه
XXXVII b 2.	فراغت	S.	فراغت
XXXVIII b 3.	صنایح اوقوماق	S.	shu so‘zlar yo‘q

Olim ish jarayonida qo‘lyozmalardagi ba‘zi baytlarni tanqidiy matnga kiritmay, tushirib qoldirgan holatlar ham bor. XXVII bob 421- baytdan so‘ng mana bu ikki bayt:

شه ساری کوزی توشماک ایردی همان

تانیدیکم ایرور همان مهمان

Shah sori ko‘zi tushmak erdi hamon,

Tonidikim erur hamon mehmon.

اوزی بیر کان کییی توتی کلرنک

یانا کلرنک تاج ایلا اورنک

O‘zi bergan kibi to‘ni gulrang,

Yana gulrang toj ila avrang.

M nusxasida bu ikki bayt mavjud. Lekin asosiy tayanch nusxalar hisoblangan Abduljamil va undan keyingi Sultonali nusxalarida bu ikki bayt yo‘q. Sahifa ostida Shomurod kotib va Mannofqori toshbosma nusxalarida birinchi bayt borligi, tekshirilgan qo‘lyozmalardan O‘zFA Sharqshunoslik institutidagi № 3459 va № 4439 nusxalarida ham bu baytlar mavjudligi aytib o‘tilgan. Keyinchalik 1960-yilda Porso Shamsiyev mana shu ikki baytni “Xamsa”ning to‘liq nashriga kiritgan.

Matnshunos olim 1956-yilda “Sab‘ai sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matnini tuzib chiqqach, shu asosida 1960-yilda “Xamsa”ning to‘liq matnini nashr ettirdi. Nashr va tanqidiy matnni o‘zaro qiyoslab chiqayotganimizda bu ikkisi o‘rtasida ba‘zi farqlarga duch keldik. Masalan, tanqidiy matnning I bob 42a misrasidagi “هرنی کیم” (harne kim) so‘zi “harnekim” shaklida keladi. 73bda “نیما

”وق“ (nima o‘q) deb berilgan bo‘lsa, nashrda bu “nima yo‘q” ko‘rinishida keladi.

II bob 2b misrada:

نى كيم اندين اولوق آندين اولوق
(*Ne kim andin uluq ondin uluq.*)

deb, berilgan misra nashrda:

Ne kim andin uluq yo‘q andin uluq.

shaklida kelgan. III bob 41a misrasidagi “درپاش” (durposh) so‘zi nashrda “durfosh” shaklida berilgan. Yana bir misol: VIII bob 47b misrada:

بولدى مو ايش حقيقتى معلوم
(*Bo‘ldimu ish haqiqati ma‘lum*)

nashrda esa bu misra:

Bo‘ldimu bu ish haqiqati ma‘lum.

tarzida berilgan. XII bob 128a:

اول بو سوزنى ايشيتكاج الدى خموش
(*Ul bu so‘zni eshitgach o‘ldi xamush*)

nashrda:

Shah bu so‘zni eshitgach o‘ldi hamush.

deb yozilgan. ITMning XV bob, 23a misradagi “اويى” (uyi) so‘zi nashrda “eli” ko‘rinishida kelgan. Shu bob 46b misra:

هم ييراقدين بوغوزلا انى
(*Ham yiroqdin bo‘g‘izla ani*)

nashrda bu:

Ham yiroqdin turib bo‘g‘izla ani.

ko‘rinishida keladi.

XVIII bobning 63b misrasida “جزئى” (juz‘iy) so‘zi nashrda “juzvi” deb berilgan. Shunga o‘xshash yana bir farq: tanqidiy matnning XX bob 2b misradagi “قرا” (qaro) so‘zi nashrda “azo” deb berilgan. XX bob 217a عشق (ishq) so‘zi nashrda “ish” tarzida kelgan, XXIII 168a واقف (voqif), “voqi”. XXIV 13b قاشيندا (qoshinda) so‘zi “qoshig‘a” shaklida keladi.

Bulardan tashqari, dostonning baʼzi boblarida baytlarning koʻchish holati ham mavjud. Ilmiy-tanqidiy matnda XX bobning oxirgi bayti “Xamsa”ning toʻliq nashrida XXI bobning boshiga oʻtgan, XXII bilan XXIII, XXIV va XXV boblarda ham shu holat kuzatiladi. Yana shu kabi farqli oʻrinlarni jadvalda koʻrsatamiz.

Ilmiy-tanqidiy matn	“Xamsa” nashri
I b 73b. نېما اوق	nima yoʻq
III b 41a. الوېب درپاش	boʻlib durfosh
IV b 50a. اتى عرض	olti araz
VI b 81b. قرا	qora
VIII b 26b. زروش	zardvash
VIII b 56a. كيم ايتيب	kim qilib
XI b 67b. بردا	anda
XII b 80. اولماسانك	boʻlmasang
XII b 87b. مرادو	murod
XII b 96b. غالب	rogʻib
XII b 115. همسنگ	hamrang
XIII b 34a. حاصل	hosilai
XIV b 11a. عبادت قه	ibodatgʻa
XV b 23a. ملك اويى	mulk eli
XV b 78a. قىلدى	erdi
XV b 80a. وحشت	daxshat
XVI b 61a. قير اندود	kiyr andud
XVII b 33b. بارين	yuzin
XVII b 63a. ايتكچ	egkach
XVIII b 2a. بخت	saxt
XIX b 11a. يخشى	ichni
XXI b 24a. جست و جوى	justjoʻy
XXI b 55a. جفا	figʻon
XXIII 98b. تاش	toshni

XXIV b 13b.	قاشیندا	biri der
XXV b 46a.	بری بر	qoshig‘a
XXV b 112b.	قوش	tush
XXVI b 7a.	نوش قیلدی	qildi no‘s
XXVII b 74b.	تاقي دا	toqi aro
XXIX b 159b.	کی	kim
XXXI b 11b.	کیریبان	qiribo
XXXI b 23a.	کورکان	ko‘rmak
XXXII b 1a.	اذینه	odina
XXXIII b 29a.	عامه	noma
XXXV b 30a.	اون اون بیش	o‘n besh
XXXVII b 137a.	چامن آراکه	chamanosoki

Bunday nomutonositlikka sabab qilib shuni aytish mumkinki, olim dostonning ilmiy-tanqidiy matnini tuzib chiqgach, “Xamsa”ning to‘liq matni ustida ish olib boradi va unga ba’zi tuzatishlar kiritadi. Maslan: tanqidiy matnning XVII bob 33b misrasidagi “بارین” (borin) so‘zi nashrda “yuzin” qilib tuzatilagan. agar baytni to‘liq o‘qisak, haqiqatan “yuzin” so‘zi ko‘proq mos kelishini bilishimiz mumkin:

Har biri chunki yuz yaro aylab,

Dudi ohi yuzin qaro aylab.

XVIII bobda ham yana shunday tuzatishlar bor: 2a misradagi “بخت” (baxt) so‘zi nashrda “saxt” deb berilgan. Lug‘atlarda bu so‘zga qiyin, mushkul, achchiq, ma’nolarini berishi aytilgan¹⁹. Shundan kelib chiqsak, nashrdagi variant to‘g‘ri tanlangan:

Jisini aylab edi o‘lukdek saxt,

Taxta yanglig‘ bo‘lub edi anga taxt.

¹⁹ P. Shamsiyev, S. Ibrohimov “Navoiy asarlari lug‘ati”. –T., 1973
Botirbek Hasanov “Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at”. –T., 1993

XXI bob 217a “عشق” (ishq) so‘zi “ish” deb berilgan va bu ham misra mazmuniga mos keladi. 288b misra “يارو” (yoru) so‘zi nashrda “yori” deb tuzatilgan. XXIII bob 97b “تاش” (tosh) so‘zi “toshni” shaklida kelgan:

Xanjari nugi chun anga yetti,

Toshni bir yonidin shigof etti.

Tanqidiy matnning bu misrasida vazn ham, mazmun ham buzilgan edi. Baytda Zayd Zahhobning xanjar bilan toshga shikast yetkazayotgani haqida aytilayapti, agar “tosh” so‘ziga tushum kelishigining -ni qo‘shimcha qo‘shilmasa, go‘yo tosh xanjarga shikast yetkazganday ma’no chiqib qolar edi. Nashrda bu kmchilik tuzatildi. Shu bob 147b misra “بر buti” (bir buti) nashrda “har buti” qilib tuzatilgan. Hikoyatda Zayd Zahhob dayrdagi birgina oltin butni emas, bir nechta butlarni o‘g‘irlab, o‘rniga ularning nusxalarini mahorat bilan yasab qo‘ygani haqida aytiladi. Shuning uchun ham misraga “har buti” variantini olish to‘g‘ri keladi. 266a misrada “ايلكا ظاهر” (elga zohir) nashrga “elga har dam” qilib olingan. Bayt mazmuniga “elga har dam” birikmasi ko‘proq mos kelgani uchun, olim nashrga shu variantni kiritdi.

XXIV bob 10b “سبه كون” so‘zi “shabgun”, 13b “قاشيندا” so‘zi “qoshig‘a” qilib tuzatilgan. XXV bob 45a “برى بر” nashrda “biri der”, 111b misrada “قوش” so‘zi “tush”, 231b “عجوزدا مهر” nashrda “spehrda mehr”, 314b “كيم بو”, “chun bu”, 353b “سنجر” so‘zi “xanjar” deb tuzatilgan. XXVII bob 45a misra “ديدى هم” nashrda “dedikim”, 300a “باسيب” so‘zi “topib”. Keyingi boblarda ham shunday tuzatishlar mavjud. XXIX bob 99b misra:

ايريب خيلو بارچا نيمة سيني

(Oyirib xaylu barcha niymasini)

nashrda esa “barcha, xaylu” so‘zlarining o‘rni almashgan:

Oyirib barcha xaylu niymasini.

158b “كى” nashrda “kim”, 174bda “كيم” esa “ki”, 186b “اولغان” so‘zi “o‘lg‘ay”, 279a “بحردين”, “hajrdin”. XXXI bob 11b “كيريبن”, “qiribon”, 23a “كوركان”, “ko‘rmak”, 39b “هر نيچا”, “bir necha”, 192a “مست وادي”, “mastu uy”, 319a “وراقى”, “roqiyu”. XXXIII bob 29a “عامه”, “noma”, 56a “زخمة”, “nag‘ma”, 69b “دينى دا”,

“dunyoda”, 84a “يايبيان”, “yasabon”. XXXIV bob 34a “انلادينك”, “aylading”, 41a “كيلوردا”, “qilurda”, 109a “اول”, “el”. XXXV bob 56a,b “اريق”, “arig”, 59a “ايلىنى”, “el ne”. XXXVI bob 62b “ايتكاي”, “yetgay”. XXXVII bob “كوپ”, “bas”, 162b “جهاندا”, “jahonga” tarzida berilib tuzatilgan.

Mana shunday tuzatishlar natijasida tanqidiy matn va nashr o‘rtasida bir qancha farqlar yuzaga kelib qolgan. Lekin tuzatishlar kiritilayotgan vaqtda ba’zi joylarda xatoliklarga ham yo‘l qo‘yilgan, natijada nashrning o‘zida kamchiliklar yuzaga kelib qolgan. Masalan: XVII bob 63a misrada “ايتكاچ” so‘zi nashrda “egkach” shaklida o‘zgartirilgan, lekin bu to‘g‘ri emas, misrani to‘liq o‘qiymiz:

مينمودورمين كه ظاهر ايتكاچ كين

عاجزيم بولدى ايكي شير عرين

Menmudurmenki zohir egkach kin,

Ojizim bo‘ldi ikki sheri arin!

Ko‘rib turganimizdek, bu yerda zohir etmoqlik haqida aytilayapti, agar “zohir egkach” desak, mazmunan to‘g‘ri kelmaydi. Shuning uchun ham tanqidiy matndagi variant o‘z holicha qolgani ma’qul. XVII bob 101a misrada ham “تيكرو” so‘zi “tegur” deb o‘zgartirilgan:

شامغه تيكرو يوق ايدى هوشى

كونكلى دا اوتى جسمدا جوشى

Shomg‘a tegur yo‘q edi hushi,

Ko‘nglida o‘ti, jismida jo‘shi.

“tegru” so‘zi ...gacha, qadar, o‘shangacha ma’nolarini beradi, demak, misrada shomgacha uning, ya’ni Bahromning hushi yo‘qligi, o‘zida bo‘lmagani haqida aytilganidan kelib chiqsak, tanqidiy matnning o‘zida to‘g‘ri yozilgan.

Keyingi yillarda adabiyot va qo‘lyozmalar instituti ilmiy xodimlari olim boshlagan ishni davom ettirib, «Xamsa» dostonlarining yanada mukammal tekstlarini yaratish ustida tadqiqot ishlari olib bordilar. Porso Shamsiyev tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matn ana shu “Xamsa” nashrlari uchun asos vazifasini o‘tadi. Misol tariqasida 1992-yili chop etilgan Ailisher Navoiyning mukammal

asarlar to‘plami (XX tomlik) va 2006-yili Vahob Rahmonov tomonidan nashrga tayyorlangan “Sab’ai sayyor” dostoni kabilarni aytish mumkin. Bundan faqatgina, 2011-yili bosmadan chiqarilgan, X jildlik Navoiyning mukammal asarlar to‘plami mustasno. Chunki bu to‘plam matnshunos olimlarimiz tomonidan qadimgi va ishonchli qo‘lyozmalar asosida qayta tayyorlanib, kitobxonlarga taqdim qilindi. Yuqorida aytilgan kamchiliklarning aksariyati mana shu nashrlada tuzatilgan.

Olim “Sab’ai sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashda bir nechta prinsiplarga amal qilgan. Masalan, qo‘lyozmani tanlash prinsipi. Yuqorida aytganimizdek, Navoiy “Xamsa”sining turli davrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalari juda ko‘p bo‘lib, ular orasidan ishonchlilarini tanlab olish mushkul edi. Porso Shamsiyev bu qo‘lyozmalarni aksariyatini o‘rganib chiqdi va ular orasidan eng qadimgi, ilmiy-tanqidiy matn tuzish uchun asos bo‘la oladigan qo‘lyozmalarni tanlab oldi. Yana bir tamoyil bu – arab yozuviga asoslangan eski o‘zbek yozuvidagi so‘zlarning to‘g‘ri yozilishidir.

Shuni ham aytish kerakki, ish jarayonida yozuv bilan bog‘liq ba’zi kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yilgan. Masalan, bir so‘zning turli joylarda har xil yozilishini ko‘rish mumkin: “bila” so‘zi XI bob 27a da “بيللا” shaklida kelsa, 27b da shu so‘z “بيله” ko‘rinishida kelgan, yoki “بيللا” IX bob 83a da va boshqa joylarda “buyla” (aslida shunday yozilishi kerak, “bo‘yla” emas) ma’nosida keladi. “Ila” so‘zi ham huddi shunday: VIII bob 94b da “ايلا” shaklida kelsa, XXI bob 77a,b misralarda “ايلاه” ko‘rinishida keladi. Boshqa joylarda “ايلا” yozilganda “uyla” ma’nosida beriladi. Bizningcha, kotiblar qanday yozganidan qat’iy nazar, ilmiy-tanqidiy matnda har bir so‘z faqat bir xil variantda yozilishi lozim.

Yuqoridagi so‘zlarni nima uchun “bo‘yla”, “o‘yla” emas “buyla”, “uyla” deb yozayotganimizning sababi, bu so‘zlar “bunday”, “bunaqa” va “unday”, “shunday” kabi olmoshlar ma’nosida keladi. Orfografiya hali taraqqiy etmagan bir davrda so‘zlarning yozilishiga ko‘p ham e’tibor qaratilmagan, natijada “bo‘yla”, “o‘yla” deb yozish odat tusiga kirib qolgan. Hozirda tilshunoslik ancha rivojlangan vaqtga kelib, shu kabi holatlarga jiddiyroq e’tibor berish kerak, deb o‘ylaymiz.

Matnda “hamza” (ء) belgisining ishlatilishi bilan bog‘liq kamchiliklarga ham fanlari yo‘l qo‘yilgan, masalan: XV bob, 8*b* da “موذن” (mu`zin) so‘zi, aslida, “موذن” shaklida yozilishi kerak edi. XVI bob 27*a* “مايوس” (ma`yus) so‘zida ham hamza belgisi tushib qolgan. Bundan tashqari, hamzaning noo‘rin ishlatish holatini ham ko‘rishimiz mumkin. XV 3*b* va 11*a* misralardagi “محرمى” (mahrami), “امرى” (amri) so‘zlarining oxirgi “yo” (ى) harfi ustiga hamza harakatining qo‘yilishi to‘g‘ri emas, chunki bu so‘zlar o‘zbek tiliga shakliiy yozuv tamoyili bo‘yicha qabul qilingan bo‘lib, imlo qoidasiga ko‘ra, tutuq belgisi qo‘shimchadan keyin yoki qo‘shimcha tarkibida ishlatilish holati kuzatilmaydi.

VI b. 62*b* – توامن

XII b. 1*a* – موبدى كم

XIV b. 22*b* – مانوس

XV b. 8*b* – موذن

XVIII b. 6*b* – ناله

XXI b. 240*a* – ماواسى

XXV b. 63*b* – تاثير

XXVI b. 10*a* – مامور

XXVII b. 283*b* – تاسف

Bizningcha, tanqidiy matn tuzishda qat‘iy tamoyillarga amal qilinishi lozim. Lekin haligacha ilmiy-tanqidiy matn tuzish uchun bunday qoidalar ishlab chiqilmagani, shu kabi kamchiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, arab alifbosidagi yozuv bilan bog‘liq kamchiliklarga yo‘l qo‘yish holatlari ko‘p uchraydi. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun esa, albatta, yozuvga oid maxsus qoida ishlab chiqilishi, faqat yozuv uchungina emas, balki ilmiy-tanqidiy matn tuzish uchun ham tegishli qonun-qoidalar bo‘lishi lozim, kerak bo‘lsa, alohida dastur ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Biz dissertatsiyamizning asosiy bosqichida Porso Shamsiyev tayyorlagan “Sab’ai sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matni, nashri va boshqa nusxalarni 2011-yilda bosmadan chiqarilgan, eng so‘ngi va ishonchli sanalgan X jildlik

Navoiyning mukammal asarlar to‘plami asosida qiyosiy tahlil qildik. Tabiiyki, 2011-yilgi nashrda dostonga bir qancha tuzatishlar kiritilgan, shu boisdan bular o‘rtasida ham shaklan, ham mazmunan farqlar yuzaga kelgan. Endi namuna uchun ana shu farqlardan misollar keltiramiz:

Porso Shamsiyev nashrining I bob 12*b* misrada “nur afgan” so‘zi 10 jildlikda “nurafgan” deb, qo‘shib yozilgan. 16*a,b* misralarda ham “jahon paymo” va “osmon paymo” sozlari ham 10 tomlikda qo‘shib yozilib tuzatilgan. 31*b* misrada Allohning sifatlaridan biri bo‘lmish “haq” so‘zi 10 tomlikda bosh harf bilan “Haq” deb yozilib tuzatilgan. Shu so‘zlar 2006-yili Porso Shamsiyevning ilmiy-tanqidiy matn asosida tuzilgan Vahob Rahmonov nashrida ham tuzatilgan. II bobning kirish qismida “boriy” so‘zi 10 tomlikda bosh harf bilan “Boriy” deb berilgan. 8*a,b* “yarotqon”, “yarotilg‘on” so‘zlari, “yorotqon”, “yorotilg‘on” shaklida keladi. V bob 22*a,b* “latofat dururki” 10 tomlik va VR nusxalarida hamma joyda qo‘shib yozilgan. P. Shamsiyevda “durur” ishtirok etgan so‘zlar aksaryat hollarda ajratib yozilgan, lekin ba’zi joylarda qo‘shib ham yozilgan, masalan, shu bobning 41*a* misrasida “so‘zdurur” shaklida berilgan.

P. Shamsiyev nashri		2011-yil nashri
I b. 31 <i>a</i>	erkinin	erkanin
I b. 32 <i>a</i>	aqlg‘a	aqlga
II b. 3 <i>a</i>	xurshed	xurshid
II b. 8 <i>a</i>	yaratg‘on	yorotqon
II b. 21 <i>a</i>	oluahu	olouhu
III b. 2 <i>a</i>	kish	kesh
III b. 18 <i>b</i>	daraxshanda	duraxshanda
IV b. 31 <i>b</i>	bila	birla
V b. 49 <i>b</i>	tuta	tuto
VI b. 28 <i>b</i>	chuchukligidan	chuchukligidin
VI b. 81 <i>b</i>	qora	qaro
VII b. 19 <i>a,b</i>	vasi’, rafi’	vase’, rafe’

VII b. 45 <i>b</i>	Navoyi	Navoiy
VIII b. 45 <i>a</i>	sanga	sango
VIII b. 49 <i>a</i>	Key	K – ey
IX b. 10 <i>a</i>	Atorid	Utorid
IX b. 33 <i>a</i>	xidevi	xadivi
X b. 1 <i>b</i>	nugi	no‘gi
XII b. 33 <i>b</i>	dilkush	dilkush
XII b. 51 <i>a</i>	olig‘a	ollig‘a
XIII b.4 <i>b</i>	xizmat	xidmat
XIII b. 51 <i>b</i>	Xisrav	Xusrav
XIV b. 7 <i>a,b</i>	tuzor, uzor	tuzar, uzar
XVI b. 61 <i>a</i>	kiyr andud	qiyrandud
XIX b. 53 <i>a</i>	komgori	komkori
XX b. 21 <i>b</i>	Baytul-ihzonima	Baytul-ahzonima
XXI b. 3 <i>a</i>	Chirikiga	Cherikiga
XXI b. 2 <i>a,b</i>	shohi, ogohi	Shohe, ogohe
XXI b. 216 <i>a</i>	parzona	farzona
XXV b. 41 <i>a</i>	menug‘a	minug‘a
XXIII b. 7 <i>b</i>	Zaid Zahhob	Zayd Zahhob
XXV b. 41 <i>a</i>	menug‘a	minug‘a
XXV b. 61 <i>a</i>	Subhidam kim	Subhidamkim
XXVII b. 31 <i>b</i>	mallul	malul
XXVII b. 230 <i>a</i>	Ma’sud	Mas’ud
XXVIII b. 9 <i>b</i>	shabagun	shabgun

Ko‘rsatib o‘tilgan bu farqlar faqat shakl jihatdan bo‘lsa, endi keltiradigan misollarimiz mazmun jihatdan farqlanadi. Lekin bularning ba’zilarini ham shaklan ham mazmunan farqlarga ajratsa bo‘ladi. Masalan XXI bobning 2*a* misrasida “shohi” 10 tomlikda “shohe”. Bu so‘zlarni faqat shaklan emas, mazmunan ham ajratsa bo‘ladi. Birinchisida “shoh” so‘ziga egalik qo‘shimchasi -i qo‘shilib, shohi,

ya'ni mulkning shohi ma'nosida kelsa, ikkinchisida forsiy qo'shimcha "e" qo'shib, bir shoh mazmunini ifodalagan.

Nashrning II bob 39a,b misralarda "mazlumi", "mahrumi" so'zlari 10 tomlikda "mazlume" (bir mazlum), "mahrume" (bir mahrum) tarzida tuzatilgan.

Yetishib men gadoyi mazlume,

Har ne matlubi bo'lsa mahrume.

Mana shunday farqlar juda ko'p uchraydi, 41bda ham "iztiroriydur" so'zi "iztiroredur" deb berilgan. 58a,b misralardagi "voqi", "roji" so'zlari 10 tomlikda "voqe", "roje" (barcha joylarda shunday) kelgan. VIII bob 39b misrada "piri", "pire". XIV bob 26b "dami", "dame" kabi so'zlar 10 jildlikda ham, Vahob Ramonov nashrida ham tuzatilgan. Lekin shunday o'rinlar borki, Porso Shamsiyevda va 10 jildlikda bir xil yozilgan so'z VRda farq qiladi, masalan, I bob 35b misradagi "ilohiy" so'zi VRda "Ilohi" deb yozilgan. Bunday yozilish mazmunga to'la mos kelmaydi:

Aqlning bor ishi tabohi o'lub,

Andakim hikmati ilohiy o'lub.

Misrada ilohiy hikmat haqida aytilgan, agar ilohi desak, hikmatning ilohi bo'lib qoladi. Demak, Porso Shamsiyev va 10 tomlikda to'g'ri berilgan.

Payg'ambar Muhammad s.a.vga ba'gishlangan bobning 14b misrasida "matlai" so'zi "matla'i" shaklida kelgan. 40a "nishoniy" 10 tomlikda "nishoni" qilib tuzatilgan. Bayt mazmuniga ko'ra "nishoni" deyish to'g'ri keladi:

Bu xabardin bo'lib nishoni deh

Sirri fa'tu busuratin mislih.

Bu yerda Muhammad alayhissalomga payg'ambarlik maqomi berilgani xabaridan qishloqning nishon, belgi topgani, ogoh bo'lgani haqida aytilayapti. Nishoniy, ya'ni ochiq yoki oshkor desak, mazmunga to'g'ri kelmaydi.

IV bob 5a "havro" so'zi 10 tomlikda "huro" yozilgan:

Yo'qki huro yoyib jahon uza dom,

Yuz sori halqa mo'yi mushkinfom.

V bob 46a "Yorab" so'zi 10 tomlikda "Yo Rab" tarzida tuzatilgan:

Yo Rab! Ushbu hadiqai purgul,

Kim anga nutq aylading bulbul.

Agar bu soʻz qoʻshib yozilsa, “yaramoq” maʼnosini berib, mazmunga putur yetadi. Dostonning kirish qismlarida ham farqlar bor. VI bob 2-qatordagi “jamiyatini” soʻzi “jamʼiyatini”, 3-qator “jomii” soʻzi ham “jomeʼi” deb berilgan. Bu soʻzlar 10 tomlik va VRda toʻgʻri yozilgan.

P. Shamsiyev nashri		2011-yil nashri
V b. 7a	nuktaniki	nukta neki
V b. 40a	arabiy	arabi
VI b. 26b	elitti	eltti
VIII b. 44a	Lahzai	Lahzae
VIII b. 47a	Kayfiyat neni	Kayfiyatini
VIII b. 68b	solib	olib
X b. 21a	pinhoni	pinhoni
XI b. 26b	tegurdi	yetkurdi
XI b. 36b	Ki ul aytgʻoncha	Avval aytqoncha
XV b. 29a	Kun	Kavn
XVI b. 21a	zod	Zor
XVII b. 63a	egkach	etgach
XVII b. 101a	tegur	tegru
XVIII b. 2a	saxt	baxt
XXI b. 102b	manzili	manzile
XXI b. 388a	Surdi	Soʻrdi
XXIII b. 200b	boshtin-oyoq	boshin-oyoq
XXIV b. 4b	boʻstoniy	boʻstoni
XXV b. 1b	Muddati	Muddate
XXV b. 30a	Kishvari	Kishvare
XXVII b. 61a	osmoniy	osmoni
XXIX b. 40b	Yel	El

XXXIII b. 108a	Qut	Quvvat
XXXIV b. 27a	Sho‘xning	Shohning
XXXIV b. 89a	dog‘i	og‘i
XXXVII b. 21a	Vasfi	Vaz‘i
XXXVII b. 49b	siymob	simob

Yurtimizda yillar mobaynida har bir sohada, ayniqsa, istiqloldan so‘ng juda ko‘plab yutuqlarga erishildi, jumladan matnshunoslik sohasida ham. Porso Shamsiyev o‘z faoliyatini boshlagan vaqtlarda bu soha hali endi rivojlanib kelayotgan bir davr edi. Olimning ishlarida ba‘zi kamchiliklarning uchrashi va hozirgi vaqtga kelib, bu kamchiliklarning aksariyati tuzatilganini mana shu taraqqiyot davri bilan bog‘lash mumkin. Aytmoqchimizki, Porso Shamsiyevning matnshunoslik sohasida samarali faoliyat yuritgani, soha ravnaqiga katta hissa qo‘shgani oldida bunday kamchiliklar u qadar muhim ahamiyat kasb etmaydi.

Umumiy xulosalar

Mamlakatimizda yillar davomida mumtoz adabiyotimiz namoyandalari, xususan, buyuk soʻz sanʼatkori Alisher Navoiy asarlarini chuqur oʻrganish, tadqiq qilish va ularni nashr ettirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Bu jarayonda matnshunos olimlarimizning samarali mehnatlarini taʼkidlab oʻtish oʻrinli.

Mana shunday ulkan matnshunos olimlardan biri Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori Porso Shamsiyev ham Navoiy asarlari ustida, xususan, “Xamsa” tarkibidagi dostonlar yuzasidan tekstologik tadqiqotlar olib bordi.

Dissertatsiyamizda Porso Shamsiyevning matnshunoslik faoliyati yoritilishi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Porso Shamsiyev – oʻzbek matnshunosligining asoschilaridan biri sifatida klassik shoirlarimiz, xususan, Alisher Navoiy asarlarini toʻplash, oʻrganish va nashrga tayyorlash ishlari bilan muttasil shugʻullanib kelgan, koʻplab asarlarning matnini yaratgan olimdir.

2. Matnshunos “Xamsa” tarkibidagi dostonlar yuzasidan olib borgan tekstologik ishlari natijasida 1960-yilda “Xamsa”ning toʻliq matnini va “Xamsa” tarkibidagi dostonlar ustida olib borgan ishlarini yakunlab, 1970-yili “Alisher Navoiy “Xamsa”sining ilmiy-tanqidiy teksti va uni tayyorlash prinsiplari” degan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi va bu keyingi yillardagi “Xamsa” nashrlari uchun ham asos vazifasini oʻtadi.

3. Ayniqsa, matnshunos olimning S. Mirzayev bilan birgalikda Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”dek asarini arab alifbosidan tabdil qilgani va toʻliq nashrini amalga oshirgani matnshunoslik rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Shu kabi kitoblari keyingi tadqiqotlar uchun muhim manbaga aylandi.

4. Porso Shamsiyev tomonidan eʼlon qilingan ishlar bibliografiyasi tuzish (xrestomatiya va darsliklar, ilmiy-ommaviy nashrlar, ilmiy-tanqidiy matnlar va maqolalar) olimning ilmiy faoliyati haqida mukammal tasavvur hosil qiladi.

5. “Sab’ai sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda asosga olingan qo‘lyozma manbalarning to‘g‘ri tanlanishi, qo‘lyozmalar va tanqidiy matn o‘rtasidagi shaklan va mazmunan mavjud farqlarni ilmiy asosda tanlab olish va xolis baholashga imkon beradi.

6. Tanqidiy matn asosida 1960-yili bosmadan chiqarilgan “Xamsa”, shu jumladan, to‘liq nashrining 2011-yilgi Alisher Navoiyning mukammal asarlar to‘plami va Vahob Rahmonov nashriga qiyoslab o‘rganilishi barcha nashrlarda mavjud kamchiliklarni aniqlashga va kelgusi nashrlarni xatosiz yaratishga ko‘mak beradi.

7. Porso Shamsiyev tayyorlagan “Sab’ai sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matni, nashri va boshqa nusxalari (Vahob Rahmonovning “Sab’ai sayyor” nashri) 2011-yilda bosmadan chiqarilgan, eng so‘ngi va ishonchli sanalgan X jildlik Navoiyning mukammal asarlar to‘plami asosida o‘rganilishi matnshunoslik sohasida yangi qarashlarning shakllanishiga asos bo‘ladi.

8. Arab yozuviga asoslangan eski o‘zbek yozuvdagi ba’zi jihatlar (kamchiliklar) tabdil jarayonida e’tiborga olinishi zarur. Bu yozuv asosidagi matnlar tabdili uchun matnshunoslikning mavjud prinsiplarini mukammallashtirish zarur.

9. Ta’lim bosqichlarida dissertatsiya materiallaridan (Sab’ai sayyor” dostoni akademik litseylarda adabiyot darslarida) unumli foydalanish mumkinligi dars ishlanma shaklida ko‘rsatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008-yil.
2. Karimov. I. A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
3. Abduljamil Kotib. O'zFA Sharqshunoslik institutining kitob fondi, inv. № 5018.
4. Abduqodir Hayitmetov. Navoiyxonlik suhbatlari. –T.: O'qituvchi, 1993.
5. Abduqodir Hayitmetov. Ilk navoiyshunoslar // Navoiyga armug'on. K. 2. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2000.
6. Adabiy manba: o'rganishning zamonaviy tamoyillari va nashr muammolari (maqolalar to'plami). – Qarshi: Nasaf, 2013.
7. Alisher Navoiy. Sab' ai sayyor. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, 1981.
8. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. J.9. – T.: Fan, 1992.
9. Alisher Navoiy “Xamsa”si. Maqolalar to'plami. Tadqiqotlar. – T.: Fan, 1986.
10. Aziz Qayumov. Ishq vodiysining chechaklari. 1-jild, 2-kitob. –T.: Mumtoz so'z. 2008.
11. Aziz Qayumov. Hayrat ul-abror talqini. Asarlar. 1-jild, 1-kitob. –T.: Mumtoz so'z, 2008.
12. Botirbek Hasanov. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. – Toshkent: Fan, 1993.
13. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. – T.: Badiiy adabiyot, 1969.
14. M. O'zFA Sharqshunoslik instituti, inv. № 7554.
15. Natan Mallayev “O'zbek adabiyoti tarixi” birinchi kitob. T.: – O'qituvchi nashriyoti, 1965.
16. Natan Mallaev. So'z sehrining gultoji. –T.: O'qituvchi, 1987.
17. Natan Mallaev. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – T.: Adabiyot va san'at, 1974.
18. Navoiyga armug'on. Jurnal. Nizomiy nomidagi TDPU. –T.: Fan, 2004.

19. Navoiyning ijod olami. Maqolalar to‘plami. – T.: Fan, 2001.
20. Oybek. Navoiy gulshani. Navoiy haqida maqolalar. – T.: 1967.
21. Porso Shamsiyev. O‘zbek matnshunosligiga oid tatqiqodlar. – Toshkent: Fan, 1986.
22. Porso Shamsiyev. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy – Toshkent: Fan, 1966.
23. Porso Shamsiyev. Oybek. Majolis un nafois. – Toshkent: 1948.
24. Porso Shamsiyev. Sab‘ai sayyor ilmiy kritik teksti. – Toshkent: O‘z FA, 1956.
25. Porso Shamsiyev. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: O‘z FA nashriyoti, 1960.
26. Porso Shamsiyev. Navoiy asarlari lug‘ati. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1973.
27. Porso Shamsiyev. Alisher Navoiy. “Muhokamat ul-lug‘atayn”. – Toshkent, 1940.
28. Porso Shamsiyev. Alisher Navoiy. “Majolis un-nafois”. III jild. – Toshkent, 1948
29. Porso Shamsiyev. O‘zbek adabiyoti (4 jildlik). 2-jild (Alisher Navoiy asarlari). – Toshkent, 1959.
30. Porso Shamsiyev. Alisher Navoiy. “Xamsa”. – Toshkent, 1960.
31. Porso Shamsiyev. Bobir. “Bobirnoma”. – Toshkent, 1960.
32. Porso Shamsiyev. Alisher Navoiy. “Farhod va Shirin” (ilmiy-tanqidiy matn). – Toshkent, 1963.
33. Suyima G‘aniyeva. Tuhfat us-salotin. – Toshkent: 2007.
34. Suyima G‘aniyeva “Guhar cho‘msa daryog‘a...” Jannatmakon jurnali. Fevral, 2008. 51-b.
35. Saidbek Hasanov. Navoiyning yeti tuhfası. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.
36. To‘xta Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
37. Tozagul Matyoqubova. Alisher Navoiy hayoti va ijodi. – T.: Fan va texnologiya, 2010.

38. Qozoqboy Yo‘ldoshev. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
39. Vahob Rahmonov. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
40. O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. J. 2. – T.: Fan, 1977.

Lug‘atlar

1. Matn – text	37. Maqola – story
2. Kitob – book	38. Hikoya – story
3. Bilim – knowledge	39. Kitobxon – reader
4. Hayot – life	40. Inson – people
5. Ijod – creative work	41. Istedod – ability
6. Faoliyat – activity	42. Qiziqish – interested
7. Mehnat – labour	43. Taniqli – popular
8. Asar – work, crack	44. Samara – result
9. Mavzu – theme	45. Jasorat – boldness
10. Mustaqil – independent	46. Qadimiy – old
11. Davr – epoch	47. Doston – epic
12. Urf-odat – customs and tradition	48. Mashhur – popular
13. Biografik – biographical	49. Fan – subject
14. Turmush – entity	50. Mumtoz – select
15. Ma’naviy – spiritual	51. Mahorat – skill
16. Yo‘l – road	52. Tajriba – experiment
17. Xizmatlar – service	53. Soha – field
18. Umumiy – general	54. Yuksak – elevated
19. O‘rta – secondary	55. Litsey – lyceum
20. Ta’lim – education	56. Mushohada – observation
21. Maktab – school	57. Elektron – electron
	58. Nomzodlik – doctoral

22. Tarjima – translate	59. Adabiy ta'sir – Literary effect
23. Texnologiya – technology	60. Adabiy muhit – Literary environment
24. O'quvchi – pupil	61. Badiiy ijod – Artistic creation
25. Xulosa – summary	62. Karam – Generosity
26. Ma'lumotlar – information's	63. Mumtoz adabiyot – Classical literary
27. Sana'tkor – artist	64. Mahorat – Skill
28. Uslub – method	65. Muruvvat – Humanity
29. Badiiy – artistic	66. Saxiy – Generous
30. Dastur – reversing rod	67. Saxovat – Generosity
31. Fikr – opinion	68. Futuvvat ta'limoti – Doctrine of futuvvat
32. So'z – word	69. E'tiqod – Faith
33. Shoir – poet	70. G'oya – Idea
34. Jahon – world	
35. Buyuk – great	
36. Himmat – generosity	